

MARIYA MONTESSORI METODIKASI



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Teshabayeva Zamira Sobirovna

«MARIYA MONTESSORI METODIKASI»

Fanidan
O'quv qo'llanma

Ta'lim yo'nalishi: 60110200 - Maktabgacha ta'lim

TOSHKENT- 2023

UO'K 373.167.1

KBK 74.1

M-27

MUNDARIJA

Teshabayeva Z.S. / Mariya Montessori metodikasi / O'quv-qo'llanma
- Chirchiq: «Nazokathon ziyo print», 2023. – 76 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavriyat talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda xorijiy tajribalarni o'rganish, integratsion o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Mariya Montessori metodikasining mohiyati va metodika tamoyillariga muvofiq tuzilgan, bola hayotining birinchi kunida boshlab uning uygun rivojlanishiga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari batafsil bayon etilgan.

O'quv qollanmani tayyorlashdan ko'zlangan maqsad maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sohasiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondoshish, pedagogik jarayonni sifat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil etishdan iborat.

O'quv qo'llanmada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirishda kvalimetrik kompetensiyaning o'rni va ahamiyati, hamda bolalarni har tomonlama shakllantirishda gamho'rlik qiluvchi oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va mahalla bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirishga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish vazifalari yoritiladi.

Kirish

1-Mavzu: Mariya Montessori metodikasining yaratilish tarixi va nazariy asoslari	4
2-Mavzu: Mariya Montessori metodikasining asosiy g'oyalari	6
3-Mavzu: Montessori ta'lim tizimining tarkibiy qismlari	18
4-Mavzu: Mariya Montessori metodikasida ko'rgazmalilikning o'rni	28
5-Mavzu: Mariya Montessori metodikasiga doir ilmiy tadqiqotlar va muammolar	32
6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Mariya Montessori zonalarini yaratish	41
7-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasida Mariya Montessori metodikadan foydalanishning o'ziga xosligi	47
8-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Montessori metodikasi mashg'ulotlari. "Tinchlik va hurmat" darslarini tashkil qilish	52
9-Mavzu: Montessori metodikasi va oila	55
MARIYA MONTESSORI METODIKASI FANI BO'YICHA IZOHLI LUGAT	58
ADABIYOTLAR RO'YXATI	68
	71

ISBN 978-9910-9964-4-3

UZBEKISTON RESPUBLIKASI O'QUV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

© Teshabayeva Z.S., 2023
© «Nazokathon ziyo print», 2023

Kirish

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy geosiyosiy jarayonlar dunyoning goyaviy-mafkuraviy qiyofasi o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyo qarashni shakllantirish taqozo etmoqda.

"Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'gin hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi"¹ deb ta'kidlay prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" asarida.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi",

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, O'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish takomillashtirish taqozo etadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan islo qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisida»gi qonuni 4-moddasida har bir bolaning iste'dod nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi keltirilgan².


2017-yilnin 16-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida bo'lib o'tgan yigilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish hamda mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'grisida»gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida»gi PF-5198-sonli Farmoni qabul qilindi.

Maktabgacha yosh-shaxsning dastlabki kamol topish davridir. Har bir bola shaxsining rivojlanishi, jumladan ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uni adabiyotga, san'atga qiziqish va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda pedagog yetakchi ro'l o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaning turli metodlarini qo'llash va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida belgilab berilganidek, o'quv tarbiyaviy faoliyatning o'zaro uyğunligini ta'minlash, har bir bolaning individual xususiyatlarini hamda ta'lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etish lozim³.

"Mariya Montessori metodikasi" fani talabalarda pedagogik ijodkorlik hamda pedagogik kvalimetriya kompetensiya sifatlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Chunki, metodikani amalga qo'llash jarayonida tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash jarayonlari amalga oshiriladi, texnologiyani qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganadi, integratsion jarayonni va integratsion mashgulotlarni tashkil etish bo'yicha bilimlarni o'zlashtiradi. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, o'quv jarayonini modernizasiya-lash, mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

"Mariya Montessori metodikasi" fani maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikni amalga oshirishning samarali yo'llarini ko'zda tutadi. Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim yo'nalishi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar uslubchilar, oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.



1-Mavzu. Mariya Montessori metodikasining yaratilish tarixi va nazariy qarashlar

Millionlab odamlar uchun ta'lim tizimini o'zgartirishi keral bo'lgan ayol Mariya Montessori 1870-yil 31-avgustda Italiyaning Kiyaravalle shaxrida tugilgan. Uning onasi Renil'da olimlar oilasidan kelib chiqqan bo'lib, ziyoli va erkin dunyo qarashga ega edi u qizida ayol hayotida o'z yolini o'zi tanlashi mumkinligiga ishonchni tarbiyaladi. Mariyaning otasi Alesandro ijtimoiy nuqtai nazardan anchagina eskicha odam edi, u ofiser bo'lib xizmat qilgan, o'z mamlakati

mustaqilligi uchun jangda qatnashgan, keyinchalik birlashgan Italiya mamlakati vaziri darajasiga yetishgan. 1875 yilda Alesandro oilasini Birlashgan Italiyaning yangi poytaxti Rimga ko'chirib keladi va Mariya maktabga boradi. Rimdagi ko'p maktablarda o'qitish usuli bihul, zerikarli edi, o'qituvchilar sinf honasining o'rtasida turib bolalarga ma'ruza oqirdi. Italiyan qizlarini yaxshi ona va uy bekasi bolishlari talab etilardi shuning uchun ular uy ishlariga o'rgatilar edi. Lekin o'ziga ishongan, qiziquvchan Mariya texnika litseyida

o'qishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Litseyda faqat o'gil bolalar ta'lim olar edi, nima bo'lishidan qat'iy nazar Mariya shu erda oqishni hohlar edi, u o'qituvchi emas injener bo'lmoqchiydi. Lekin

Mariyaning otasi uning bu tanloviga qarshi chiqadi, uni o'qituvchi bo'lishini maslahat beradi.

20 yoshida Mariya texnika litseyini a'lo baholarga tamomlaydi va Rim Universitetining meditsina fakultetiga o'qishga kiradi. Yevropada bu davrda qiz bolaning Universitetda oqishi ajablanarli holat edi. Qizlar universitetda gumanitar fanlarda o'qib tahsil olishlari mumkin edi, tilni, tarixni o'rganishi va o'qituvchi bo'lishi mumkin edi. Meditsinani o'rganish istagi Mariyaning o'sha davr qoidalarini buzishiga sabab bo'ldi. Ba'zi professorlar ayollarning miyasi erkaklarning miyasidan kichik, ular o'qishga loyiqmas, ular uyda o'tirganlari yaxshiroq degan fikrlarni aytishar edi. Mariya esa bu fikrlarning hato ekanligini isbotlamoqchi bo'ldi. Mariya qiz bola bo'lganligi uchun darslarga otasining hamrohligida qatnar edi. Ko'chada yolgiz yurish qiz bola uchun mumkin emas edi. Mariya leksiya zaliga hamma yigitlar kirib o'tirib bo'lganlaridan so'ng kirar edi, ular qaysar qizga nisbatan nafratlarini namoyish qilishar, qiz bilan gaplashishmasdi, auditoriyada o'tirishga joy qoldirishmas, o'zlarini begonaladek tutishar, "bizning oramizda bu ayolning borligi kasbimizga soya soladi" deyishardi, Mariyaga juda ogir edi. Mariyaning qoldirgan hatlaridan ma'lum bo'lishicha u o'qishni tashlab ketmoqchi ham bo'lgan. U universitetdan chiqib borar ekan darslarni tashlab ketish fikri keladi. Ko'cha bo'ylab borar ekan kambagallar to'dasining yonida kichkina bolaning qizil qogoz bo'lagini juda qiziqish bilan o'ynayotganini ko'rib qoladi, uning oyoq yalang, kiyimlari yirtilgan lekin butun fikri hayoli o'sha kichik qogozchada edi, bu holat Montessorini hayratda soladi, bola o'zining nochor ahvoliga qaramasdan o'yin bilan band edi yoki Mariya bolada bilim olishga bo'lgan qobiliyatni ko'rdimi? Mariya o'zi ham aniq javobni bilolmasdi, lekin u bolani hiss qildi. "Odamzotning vazifasi bor

lekin biz uni hatto hayolimizga ham keltirmaymiz". Shundan so'ng Mariya gayrat bilan o'qishga boradi, uni masxara bilan qarshi olgan yigitlarga qarata "siz qanchalik ustimdan kulmang, nafrat bilan qaramang men shunchalik ilgarilab boraveraman" deydi.

1896 yilda Mariya Universitetni tamomlaydi, u Italiyada birinchi ayol vrach bo'ladi. Mariyaning otasi qizining qanchalik buyuk ayol bo'lib yetishganini tushungan edi. Mariya "Sanjovani" shifohonasida shifokor assistent vazifasida ishlay boshlaydi. Biroq tez orada u boshqa yo'ldan boradi, Mariya ayollar huquqlarini himoya qilish yo'lida kurasha boshlaydi. Butun Evropada ayollar saylovlarda o'z nomzodligini qo'yish, hattoki ovoz berish huquqidan mahrum edi, ular ikkinchi darajali fuqarolar hisoblanar edi. Yevropaning turli mamlakatlarida Kongresslar bo'lar, bu kongresslarga ayollar boshchilik qilar edi. Ularning orasida 26 yoshli Mariya Montessori ham bor edi. O'zu maqsadiga erishgan Mariya boshqa ayollarni ham shu yo'ldan borishga chaqirar edi. Mariya Rim Universitetining lektori bo'lib yetishdi. U ayollarga soglom turmush tarsi haqida ma'ruzalar o'qiydi. Mariya "Ayollar huquqlarini himoya qilish tashkiloti"ning vise kotibasi etib tayinlanadi. U Berlin Kongressida ma'ruza o'qishga taklif qilinadi, Mariya o'z ma'ruzasida ishlaydigan ayollarning muammolari haqida nutq so'zlaydi. "Men ayollar mehnatiga nisbatan nohaqliklarga chek qo'yilishini, ayollarga ham erkaklarga to'langandek ish haqqi to'lanishini talab qilaman" deydi u ma'ruzasida. Berlindan Rimga qaytgan Mariya jiddiy ish bilan shugullanish haqida qaror qiladi, unda Rim psixiatriya klinikasiga ishga joylashish imkoniyati tugiladi. Mariya klinikada aqliy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan ishlaydi. Klinikada bolalarning ahvoli juda ogir edi, ular uchun hech qanday e'tibor, gamho'rlik ko'rsatilmay, rivojlantiruv-chi mashg'ulotlar olib borilmas edi. Bu holatga Mariya befarq qarab turolmaydi "Bu bolalar jamiyatdan ajralib qolmasligi kerak, ular jamiyatda o'z o'rinlarini topishi, mustaqil bo'lishga haqlidir" deydi.

Mariya bolalarning bilim olishga qobiliyati bor deb hisoblaydi. U yangi imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashgan maktabda direktorlik vazifasida ishlaydi. Maktabda yosh doktor Jo'zeppe Montessano bilan birgalikda ishlaydi. Ular birgalikda bolalarning sharoitini yaxshilash usullari ustida izlanadilar. Mariya mashhur pedagoglarning asarlarini ko'p o'qir, bolalar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarning yangi yechimlarini izlar edi.

Mariya duradgorlardan bolalarning sezgilarini uygotishga, mantiqni rivojlantirishga yordam beruvchi o'yinchoqlar tayyorlab berishini so'raydi. Uning yangicha yondashuvi o'z samarasini bera boshladi, u bolalarning hammasi ham jamiyat uchun o'z orinlarini topqanligini tushuna boshladi. Ular kutilgan natijalarga erisha boshladi. Mariya ayrim bolalarning nogiron ekanligini va ular bolalar uyidan ekanligini ma'lum qilmagan holda ularni oddiy maktabga davlat imtihonlarini topshirishga yuboradi. Bolalar imtihon topshiradilar ularning ayrimlari hatto soglom bolalardan yuqori baho oladilar. Mariya nogiron bolalarni soglom bolalardek tutib o'zlashtirganligidan taajjublanadi, "u holda soglom bolalar uchun joriy etilgan ta'lim tizimini qanday baholash mumkin?" degan savolni beradi. 1901 yilda 30 yoshli Mariya hal qiluvchi qararni bosadi, u butun Italiyan bolalarining ta'lim tizimini o'zgartirishga qaror qiladi.

U o'z metodida bolaning olamni anglashga qaratilgan faol harakatida bo'lish huquqini, tadqiqot va ijodiy urinishlar hisobiga rivojlantirishni kerakligini isbotlaydi. Bu paytda Mariya bilan uning hamkashi Montessano o'rtasida muhabbat rishtalari nish ura boshlagan edi. Oldiga katta maqsadlarni qo'ygan yosh olimlar rasmiy nikoh tuzishni xohlashmaydi.

Ular o'z munosabatlarini nikoh rishtalari bilan boglamasdan davom ettirishga kelishib oladilar. 20-asrning boshlarida Italiyaning qoidalariga binoan oilali ayollar ishini tashlab uyda o'tirishlari va farzand tarbiyasi bilan shugullanishi kerak edi. Mariya qat'iyatli ayol edi

agar u oila qurishni hohlaganda qurgan bo'lar edi lekin u boshlagan ishini davom ettirishga qaror qildi. 1897 yilda Mariya homiladagi bo'lib o'g'illi bo'ladi, lekin ogriqli qaror qabul qilishga majbur bo'ladi.

Farzandini qishloqqa dehqon oilasi tarbiyasiga beradi, Mariya bolani o'zi bilan olib qolishi mumkin emasdi. Taqdir hazili- bolalar uchun o'z hayotini bagishlagan ayol o'z farzandidan uzoqda edi. Mariya o'g'lini ko'rishga borib turadi, biroq unga onasi ekanligini aytmaydi. Montessano va Montessori nafaqat o'zaro boshqa hech kim bilan nikohdan o'tmaslikka kelishishadi. Lekin 1901 yilda Montessano boshqa ayolga uylanadi, Mariya qattiq hafa bo'ladi va Montessano bilan birga ishlaydigan maktabni tashlab ketadi. Montessanoni hach qachon kechimaydi. U yana kuch bilan ishlashga kirishadi. Mariya Rim Universitetida dars beradi, yana talaba bo'lib Antrpologiya va psixiatriyani o'rganadi. Uch yildan so'ng u antrpologiya professori bo'ladi, shuningdek u ijtimoiy moslashishi qiyin bolalar uchun o'qitishning yangi metodlari ustida ishlaydi. Nihoyat 1906 yilda u o'zining nazariy bilimlarini amaliyotga joriy etishga imkoniyat tugiladi Rimning San Lorensa rayonida "Kambagallarning turmush tarzini yaxshilash" nomli ijtimoiy loyiha faoliyat boshlaydi, Mariya maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini yaxshilash loyihasiga boshchilik qiladi, u "KASA DEI BAMBINI" deb nomlangan bolalar uyiga rahbarlik qila boshlaydi. U o'zining nazariy bilimlari va tajribasini amalda qollay boshlaydi shunidek yana izlanishlar olib boradi. Bu davrgacha kattalar bolalarni hali hech narsa yozilmagan oq qogozga o'hshatishar, uni bilimlar bilan to'ldirish kerak, bolalar esa faqat o'tirib tinglashi kerak degan qat'iy fikr mavjud edi. Mariya bolalarning bilim o'zlashtirishi butunlay boshqacha tarzda sodir bo'lishini payqaydi, bolalar bilim olish jarayoni ularning mustaqil izlanganida yaxshi bo'lishini kuzatdi. Lekin o'sha davrda oddiy maktablardagi o'qitish metodi bu jarayonga to'sqinlik qilar bolalarni cheklab qo'yardi. Bunday darslar bolalar uchun zerikarli edi. Mariya bolalarni jim o'tirib eshitishdan ko'ra o'zlari uchun mos ish

qilishini payqadi. O'itish jarayonida bolaning o'zi ishtirok etsa, o'z harakat qilib izlansa u bilimni yaxshi o'zlashtiradi. Bu izlanishlar Mariyani Italiya maktablaridan keskin farq qiluvchi yangi o'qitish metodini ishlab chiqishiga asos bo'ldi. U kuzatuvlariga ilmiy asos ustida maktabda bolalar uchun qulay muhit yaratdi, bolalarning harfiga mos stol stullar, mebellar, erkin

harakatlantirishlari uchun keng yorug' hona, o'ynashlari uchun o'yinchoqlar berdi. Shuningdek Mariya bolalarni tartib intizomga ham o'rnatdi, u har bir bolaning o'ziga hos qobiliyat egasi ekanligini angatadi. Uning tarbiyalanuvchilari orasida hattoki o'zi mustaqil o'qitish o'rgangan bolalar bor edi. U oddiy tarqatma tahtaga harflarni tashlab yopishtirib bolalarni harflar bilan tanishtirar edi, bu bir parchaning o'zida bolaning bir nechta sezgilariga ta'sir qilardi, bolaga harflar qo'li bilan ushlab shaklini sezib eslab qolishiga imkon berar edi. Bolalar o'rgangan harflarni o'zlari uchun tanish bo'lgan so'zlar orasidan topishga yoki aksincha so'zlar orasidan harflarni topishga qobiliyati bor yozishda kutilmagan natijalarga erishdilar.

O'z ko'zlari bilan mo'jizani ko'rgan o'qituvchilar, huquqshunoslar, vrachlar va ota-onalar bu metodikaga qiziq boshladilar. Yangi metodikaning yutuqlari haqida gazetalarda maqolalar chop etila boshlaydi. 1912 yili Mariya "Bolalar uyi ilmiy pedagogikaning metodi" nomli kitobini nashr ettiradi, shuningdek o'qituvchilarga o'zining metodikasini o'rgatuvchi o'quv markazini ochadi. Shunday qilib o'qitish revolyusiyasi boshlandi, lekin uning hayotini o'zgartirib yuborgan yoq'otishni boshdan kechiradi, uning onasi Renilda olamdan o'tadi. Mariya ko'z yoshi qilmaydi, umidsizlarga berilmaydi lekin uch hafta och o'tiradi va 20 yil motamsaro kiyimda yuradi. U O'gli Marioni borib ko'radi u bilan uchiqchasiga gaplashadi, o'gli onasi bilan birga ketishni hohlashini aytadi, ona va o'gilning ayрилиq yillari tugaydi shu ondan boshlab ular birgina muddatgagina ajralishadi. U o'z yaqinlariga va tanishlariga bolani jijanim yoki boqib olgan bolam deb tanishtirrar edi. O'gli

doim uni yonida kuzatib yuradi, Mariya o'z metodikasini tashkil qilar edi. Pedagogikadagi yutuglari uni butun dunyoga mashhur qildi. Mariya va uning metodikasi haqida butun dunyo gapirar edi. Mariya o'zining o'qitish metodikasi haqida leksiya o'qish uchun butun Evropa bo'ylab sayohat qiladi. Montessori metodikasi o'rganish bo'yicha o'quv kurslari hattoki Yaponiya va Hindistonda ham tashkil etildi. 1913-yilda AQSHda 100 dan ortiq Montessori maktablari faoliyat yuritishni boshladi, bulardan biri Oq uyning past qavatida edi, bu maktabga Prezident Vudro Vilsenning qizi rahbarlik qilar edi. 1914-yilda Yevropada urush boshlandi. Lekin urush dahshatlari Montessori harakatining ommalashishiga to'sqinlik qilolmadi. Urush sharoitida Mariya bilim va tinchlik goyasi ajralmasdan ekanligini tushundi "endi biz tinchlik va insonparvarlik yo'lida mehnat qilishimiz kerak, bizning barcha e'tibor va gamho'rlikimiz bolalariga qaratilgandir, ular bizning kelajagimiz yaratuvchilaridir" degan fikrni aytadi. Urush sharoitiga qaramay Mariya dunyoning ko'p mamlakatlari Gollandiya, Ispaniya va Amerikada bo'ldi. Fransiya va Belgiyada uning maktablari urush tufayli yetim qolgan bolalarni o'qitar edi.

Uning pedagogikadagi novatorlik metodini Amerikalik buyuk ixtirochi Tomas Edison, Britaniyalik filosof va jamoat arbobi Bertran Rassel kabi buyuk insonlar e'tirof etib qollab quvvatlashdi. 1917-yilda Avstriyalik psixolog Zigmund Freyd o'zining maktubida shunday yozadi "Bolalar psixikasini o'rganuvchi inson sifatida sizning mehnatingizni qadrlayman va chuqur hurmat qilaman".

Urush tugagach Mariya Italiyaga qaytadi. 1922 yilda siyosatchi Mussalini Italiyaning Prim'er Ministri etib tayinlanadi. Mussalini Italiyan fashist partiyasining yetakchisi edi. U Montessorining maktablari haqida ma'ruza qilishini so'raydi, u maktablardagi o'qitishning yangicha metodini va bolalardan o'qishga ishtiyoq, sinflardagi intizomni ko'rib hayratlanadi. Bu jarayonda u o'zining mehnatsevar (bo'ysunuvchi) millatni tarbiyalash imkoniyatini

ko'radi. Grantlar berildi, o'qituvchilar uchun har yili kurslar tashkil etildi va hattoki maktablar uchun maxsus o'quv qurollari ishlab chiqarish fabrika o'childi. Italiyada Montessori harakati kuchli yashnadi, ularning hamkorligi o'zaro kelishuv deb atash mumkin edi. Mariya bu kelishuvdan o'z o'quv markazlari va maktablarini yanada rivojlantirish uchun foydalandi Mussalini esa o'z maqsadida. Ular ancha vaqtgacha bir-birlaridan foydalandilar, lekin ma'lum vaqtdan keyin bu kelishuv ularni qoniqtirmadi. Muammo shunda edi ki Montessori bolalar erkin fikrlovchi bo'lib tarbiyalanishlari kerak deb hisoblar edi, u bolalar haqida siyosatchi sifatida emas o'qituvchi o'ylar edi. U doim men siyosat bilan emas bolalar bilan shugullanaman degan fikrni aytardi, lekin erkin fikrlovchi shaxs shugullanmas kerak emas edi. Uning maqsadi intizomli va bo'ysunuvchi millatni tarbiyalash edi. 1931 yilda Mussalini maktablarda o'qituvchilar harbiy qoidalarga bo'ysunishi va bolalar harbiy kiyim kiyishlari kerakligini e'lon qildi. Mariya bunga qarshi tashabbusi u doimiy kuzatuv va bosim ostida yashadi.

1931 yilda Mariya va uning o'gli mamlakatni yashirincha tark etdilar va Italiyaga qaytib kelmaydi. Bir oy o'tib Mussalini Italiyadagi barcha Montessori maktablarini yopishni buyuradi. Mariya qattiq tushkunlikka tushadi, u o'ziga hamfikir qidiradi va uni o'zi kuzatib turadigan joydan topadi. 1931 yilda Mariya Hindiston yetakchisi Mamlakat mustaqilligi uchun kurashchi Mahatma Gandi bilan uchrashadi. "Biz bir oila bo'lgan ekanligini biladi va u bilan uchrashadi. "Biz bir oila bo'lgan ekanligimiz" deydi Gandi, "Bolalar sizga salom yo'llashdi", deb javob beradi. Mariya va Gandining munosabatlari juda yaxshi edi. Gandi Montessori maktablarining tamoyillarini oqlardi va uni qo'llab quvvatlashga tayyor edi, "bunday maktablar turli madaniyatga hos mamlakatlarda faoliyat yuritishi lozim" degan fikrni aytadi. Mariya Gandining fikrlaridan maqtovlaridan ilhomlanadi. U Amsterdamda yashab turgan vaqtda yana uning faoliyatiga qarshi harakatlar kuchlanadi, 1933 yilda Germaniya hukumati yetakchisi Gitler

Germaniyadagi barcha Montessori maktablarini yopadi, uning har bir maktabi yopib yuboriladi, fashizm yana kuchaya boshlaydi. 1919 yilda Hindiston mustaqil davlat deb e'lon qilinadi, harakatlarga qo'llab boshchilik qiladi. Mariya o'gli bilan Hindistonga uchib ketishni Mamlakatning deyarli 90% aholisi savodsiz edi. Mamlakatning ta'lim tizimiga muhtoj edi. Mariyani Madrasga o'quv markaziga o'rnatib solish uchun taklif qilishadi. Qamishdan qurilgan uylarda uch yuldan ortiq talabalar o'qiy boshlaydi, Mariyaning o'gli Mario tarjimonlik qiladi. Mariya motamsaro ko'ylagini yechib oq sari kiya boshlaydi. Lekin 9 oydan so'ng Yevropadagi harakatlar yana Mariyaning hayotiga halaqit beradi. Mariya va o'gli Marioni Britaniyaning dushmanlari hisoblab, Mariyani uy qamogiga, o'gli Marioni esa lagerga jo'natishadi ular yana ayriliqda yashaydilar. Bu davrda Mariya tinimsiz ishlaydi, uning shaxsan o'zi mingdan ortiq pedagoglarni o'z metodiga o'qitadi. 1940 yilda Mariya o'zining 70 yillik yubileyini nisholaydi, Britaniya hukumati Mariyaga juda qimmatli sovga tayyorlagan edi. U Britaniya hukumatidan quyidagi mazmunda telegramma oladi "Biz sizning 70 yillik yubileyingizga qanday sovga berishni juda uzoq o'yladik va siz uchun eng qadrlil sovga o'glingizning qaytishi degan qarorga keldik". Urush tugagach 1946 yilda Mariya va o'gli Amsterdamga qaytadi lekin yevropada uning yutuqlari unutilgan edi 75 yoshida u Evroradagi barcha Montessori maktablarini qayta tiklay boshlaydi. U yana butun evropa bo'yicha leksiylar o'qiy boshlaydi. 1909 yildan Montessori metodikasi kitoblari dunyoning ko'plab mamlakatlarida tarqatila boshlandi, 1911 yilda tizim Rossiyada mashhur bo'ldi. 1914 yildan ko'plab raqshaharlarida Montessori bolalar bogchalari ochildi. Ammo 1917 yildan so'ng 1924 yildan bolsheviklar ushbu bolalar bogchalari yopishdi. Faqat 1992 yilda Montessori tizimi Rossiyaga qaytdi.

Montessori xalqaro assotsiatsiyasi Montessori o'qituvchilarga va ota-onalarga tamoyillarni tayyorlash va o'qitishni amalga oshirishda Mariya Montessori nafaqat bolalar pedagogikasi dunyodagi

metodikasi bo'lib qolmasdan, balki kattalar bolalarning qanday o'qitilishi haqida ham majbur qilib, ijtimoiy ongni ham o'zgartirdi, shunda bunday shon - sharaf va rivojlanish tizimining dolzarbligi ko'rib chiqiladi.

Hozirgi kunga kelib mingdan ziyod Montessori maktablari dunyoda mavjud, endilikda bu metodikani hattoki Montessori maktabida o'qimagan o'qituvchilar ham qo'llaydi. Montessori maktablaridan juda ko'p buyuk ijodkor shaxslar yetishib chiqqan, Montessori maktabi bolani ijodga yo'naltiradi.

Montessori uch marta Nobel mukofoti sovrindori bo'lgan .

Montessori xonimning ishini haqiqatdan ham katta ahamiyatga ega deb baholash mumkin. Ushbu ish birinchi navbatda shunisi bilan ahamiyatliki, u o'zida ayol ijodiy mehnatining natijasini aks ettiradi. Bu birinchi pedagogik tizim bo'lib, hech bo'lmaganda tizimli bo'lmagani va amaliy qo'llanilishi nuqtai nazaridan a'lo darajada bo'lmagan va ushbu tizim ayol aqli va intilishi sabab dunyoga taqdim etildi. Hech qaysi bir ayol Montessori xonim shug'ullangan masalaga aynan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash masalasiga bunday ulkan shaxsiy resurs bilan yondashmagan edi. Bundan tashqari, shaxsiyat va katta zavq bilan bu ishga o'zini bagishlaganligi xonimni dunyodagi [Pestalotsi Iogann Genrix (1746-1827) - Germaniyalik mashhur pedagog, xalq maktablarining asoschilaridan biri] va Fryobel [Fryobel Fridrix Vilgelm Avgust (1797-1837) - nemis pedagogi, maktabgacha tarbiya nazariyotchisi, Pestalotsining izdoshi.] bilan tengma-teng o'ringa qo'yadi. Tizimning o'ziga xosligi o'z-o'zidan hayratlantiradi va hurmatni uygatadi: normal bolalarni o'qitish tizimida oldin aqliy sust va ijtimoiy munosabatlarga qiyinalgan bolalar bilan ishlashda foydalanilgan uslub va ushbu qo'llaniladi; tizim o'quvchining erkinligi haqidagi qat'iy talabga asoslanadi; tizim alohida sezgi, mushaklarni harakatlantirish va xalq qobiliyatlarining shakllanishini aniq nazorat qilish imkonini beradi va o'qish, yozish va arifmetikani tez, oson va ishonchli

egallashga yordam beradi.

Bularning barini hatto sohaga aloqasi bo'lmagan o'quvchi ham mutolaa qilib tushunadi.

Yuqorida sanab o'tilganlarning hech biri pedagogika tarixida tub yangilik emas. Bularning bari nazariyada taklif etilgan, ba'zilar esa qisman amaliyotda qo'llangan edi. Lekin aynan Montessori bu elementlarning barchasini jamlagan tizimni yaratibgina qolmay, uni amaliyotda, maktablarda qo'lladi.

Albatta, Montessori tizimi tarbiya jarayonidagi barcha muammolarni hal qilmaydi; taklif etilgan yechimlarning ba'zilar qisman, hattoki butunlay xato bo'lishi ham mumkin; balki ba'zilarini ingliz, amerika yoki o'zbek maktablarida qo'llab bo'lmas, lekin diqqat bilan o'rganish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llashlari uchun ta'lim tizimi mutlaq bekami-ko'st bo'lishga majbur emas. Montessori xonimning o'zi ham tizimining mukammallikdan ancha yiroq ekanini ochiq ta'kidlagan. Katta ehtimol bilan aytish mumkinki, maktablarimizda bu tizimdan foydalanishda Montessori dasturi elementlarini bogchalardagi oddiy o'quv dasturi bilan birga qo'shib qo'llashga to'g'ri keladi. O'zining bevosita ma'nosida tarbiya eklektik bo'lishi lozim. Alohida bir tizimning so'zsiz qabul qilinishi yoki rad etilishi, turgan gapki, maglubiyatga olib keladi, chunki jamoatchilik umuman shunday tizimlarning o'ziga qiziqish bildirmaydi va qarabsizki, u qaysidir bir tizim qolgan barchalarini o'rnini egallashi mumkinligini rad etadi.

Baribir biz hali bitta-yagona tizimni ancha tushunarli yoki ilhomlantiruvchi falsafaga asoslangani uchungina ma'qullab, qolganlaridan voz kecha olmaymiz. Tizimni pragmatic tekshiruvdan o'tkazish lozim, tekshiruv bo'lganda ham o'ta sinchkovlik muhim. Turli tizimlarning qo'shilishi qanday borayotganligini kuzatib borishimiz, natijalarni yozib borishimiz, taqqoslashimiz va katta ehtiyotkorlik bilan yangi tadqiqotlarga o'tishimiz lozim. Bu jarayonni tarbiyaning barcha bosqichlarida, ayniqsa eng qiyin va

ham o'rganilgan erta bosqichda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Agar erta bosqichda o'qitish haqiqatdan ham alohida o'rganishni talab etsa, unda pedagog Montessori uslubining boshqa daturlardan tub farqlarini aniqlash kerakligini va turli tizimlarning, ularning birikmalarining natijalarini tahlil etish lozimligini tushunib yetadi.

Montessori materiallaridan uy sharoitida foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari Montessori tizimini hozirda ikkala (liberal va konservativ) turdagi bogchalarda qabul qilingan tizimdan farqlab turuvchi eng katta xususiyatlariga ham to'xtalib o'tamiz.

Ba'zi jiddiy o'xshashliklar bir qarashdayoq ko'rinadi. Masalan, Montessori ham va Frebel ham o'z qarashlari bilan bolaning faol bo'lish huquqini, atrof-muhitni anglash, o'zining ichki resurslarini rivojlantirishga bo'lgan huquqini himoya qiladilar. Tarbiya faol harakatni bostirishi emas, yo'naltirishi lozim. Bunda tarbiyachining roli qo'llab-quvvatlash, o'stirish, kuzatish, yo'naltirish va chiroyli ishtirakdan iborat. Montessori tizimining birinchi katta farqi esa ushbu tamoyilni amalda tatbiq etishdadir: tizimga ko'ra, bola guruh mashg'ulotlarida qatnashishga majbur emas, Montessori maktabi o'quvchisi istagan narsasi bilan shugullanadi, faqat bu boshqalarga zarar yetkazmasa bas.

Montessori va Frebel ikkalasi ham sensorikani rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydilar. Frebel metodidan farqli o'laroq Montessori metodi sensor rivojlanishda to'gridan-to'g'ri detallardan, didaktik materiallardan foydalanishi bilan farq qiladi.

Montessori xonim Segen materiallaridan keng foydalanadi. Uolter Sagan Fernal'd Veyverli shahridagi aqliy sust bolalar maktabining direktori. Doktor Segen Montessori honimga soglom bolalar sensorikasini rivojlantirishda ushbu didaktik materiallardan foydalanilsa juda yahshi natijalarga erishish mumkin degan fikrni aytadi.

Frebel tomonidan ishlab chiqilgan metod bolalarni keng ma'noda ijodiy rivojlanishlariga ta'sir o'tkazib, bolaning aynan sensor

rivojlanishida Montessori honimning didaktik materiallaridan yirik foydalanishida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni talab qiladi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasi.

Jismoniy rivojlanishga kelganda ikki tizimda ham qarashlar ta'limda o'z o'rnini topadi. Biriga to'g'ri keladi. Ikkisi ham jismoniy faollikni, ritmik mashqlar o'z tanasini nazorat qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Montessori tizimi esa alohida jismoniy funksiyalarni shugullanishga qaratilgan o'ziga hos mashqlarga urgu beradi.

Nazorat savollari:

1. Italyan taraqqiyparvar pedagogi Mariya Montessori qayerda va qachon dunyoga keldi?

2. Mariyaning Rim Universiteti meditsina fakultetida o'qish davrlari haqida ma'lumot bering

3. 1906 yil yahshilash "Rimning San Lorensa rayonida" "Kambagallarning turmush tarzini loyihasida Mariya Montessorining faoliyati qanday bo'lgan?

4. Mariya Montessorining pedagogikadagi novatorlik me'orini qo'llab -quvvatlab, e'tirof bildirgan filosof va jamoat arboblari haqida so'z yuriting

5. Fridrih Frebel va Mariya Montessorining bola rivojlanishiga oid metodlaridagi farqli tomonlari haqida ma'lumot bering

2-Mavzu: Mariya Montessori metodikasining asosiy goyalari

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim sohada tubdan islohotlar qilishni talab etmoqda. O'z o'rnida ham tajribalardan andoza olish, o'quv-metodik adabiyotlar, majmua ishlab chiqish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, pedagoglariga zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohada oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalar sifatida kiritilmoqda.

Montessori metodikasi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda

shaklida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni talab qiladi. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasi.

Bu o'zida fikrlash, bir muammoga bir-necha yechim topish, ijodkorlik va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu faoliyatning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

Aga bu an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun tayyorlash deb aytsek, Montessori metodikasi bizni olgan bilimlarimizni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu bilimlarning yuzasiga nafaqat ba'zi bir goyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda ta'lim uchun, ular o'sib ulgayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki muhitning o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni hal qilish uchun bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash zarur bo'lganligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu yuzasiga tayanish yetarli emasligini tushinadilar. Mariya Montessori uchun tarbiyaning buyuk ijtimoiy vazifasi adolat, uygunlik yaratish edi. U ta'lim-yangi, tinch jamiyatni qurishning yagona yo'lini ko'rsatib beradi.

1-ta'lim birlashtirish kashfiyoti e'tiborining ahamiyati haqida edi. U "Bolalar uchun ta'lim" kitobida shunday yozadi: "Bolaning o'zi uchun ta'lim berish kerak bo'lgan birinchi yo'li-bu fikrni jamlash yoki konsentratsiya yoli. Ushbu konsentratsiyaning natijasi bolaning jismoniy rivojlantirishidir"

Montessori hulosasiga ko'ra, **yoshlik chogidan o'rganish uchun har qanday barcha sohalarida yordam beruvchi diqqatni qaratish zarur bo'ladi.**

2-ta'lim birlashtirish kashfiyoti- "sezgirlik davrlari" (yoki maxsus sezgirlik va idroklik davrlari). Har bir bola o'z hayotiy muammolariga, fazilatlariga va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan

qiyinchiliklarga ega noyob shaxs bo'lib, ularning har biri sezgir davrlarni boshdan kechiradi.

Agar bu davrda atrof-olamni o'rganishga keng yo'l ochib berilsa va kattalar bolaning qabul qilish qobiliyatidan maqbul darajada foydalansalar, bola yangi bilim va ko'nikmalarni osongina va quvonib o'zlashtiradi. Ushbu muddat tugagandan so'ng yangi bilimlarni "singdirish" ancha qiyinlashadi. "Agar bola o'zining **sezgirlik davri** imkoniyatlaridan foydalanmagan bo'lsa, tabiiy o'zlashtirishning osonligi yo'qoladi".

Mariya Montessori, shuningdek barcha bolalar tugma qobiliyatga ega degan hulosaga keldi, ularning barchasi atrof-dagi makonni faol ravishda o'rganib, uni tajribalar orqali chuqurroq o'zlashtiradi. "Tabiatan qiziquvchanlik, hamma narsaga qiziqish va favqulotda diqqatni jamlash qobiliyati bilan, bolalar atrof-muhitni gubkalar singari so'rib oladilar".

Montessori o'zining "Singdiriluchi aql" kitobida ushbu davrda bola uzliksiz o'rganish holatida bo'lishini ta'kidlaydi.

Mariya Montessori sezgirlik davrlarini quyidagilarga bo'ladi:

***nutqni fahmlash davri, 2 oydan 6 yoshgacha;**

***harakatlarni muvofiqlashtirishni o'zlashtirish davri, 12 oydan 4 yoshgacha;**

***tartib hissini shakllantirish davri, tugilishdan 6 yoshgacha;**

***hissiy idrokning rivojlanish davri, tugilishdan 6 yoshgacha;**

***ijtimoiy hatti-harakatlarning shakllanish davri, 2 yarim yoshdan 6 yoshgacha**

Yodingizda bo'lsin! U yoki bu sezgirlik davrini yaratish, keyinga qoldirish, uzaytirish yoki bekor qilish mumkin emas.

Biz faqat unga moslashib unga munosib muhit yaratib bera olishimiz mumkin. Bu davrda bolada "singdiruvchi aql" mavjud bo'ladi: "Biz uchun aqlga sigmaydigan imkoniyatlar bolaga ato qilingan, bu ularni yorqin kelajakka olib kelishi mumkin" Ushbu davrda bolaning ongi uni o'rab turgan hamma narsani o'zlashtiradi.

Kattalar esa bu davrda bola o'z shaxsini rivojlantirishi uchun zarur bo'lgan atrof-muhitni yaratishlari kerak. Bolani erta rivojlantirishga yo'naltirilgan prinsiplarga muvofiq Montessori kattalarga asosiy rolni, bola uchun tartibli muhit va ma'lum bir chegara yaratish vazifasini beradi. Buning qoidasi shunday: tayyorlangan kattalar, tayyorlangan muhit va mas'uliyat bilan birlashtirilgan erkinlik.

Tayyorlangan kattalar

Tartibni shakllantirishning sezgirlik davrida kattalar tartibli hayot kechirishlari va o'zlarini boshqarishlari bilan bolaning taqlid qilishi uchun namuna bo'lib xizmat qilishadi. Bu shaxsiy hayotingizni tartibga solish uchun yaxshi sababdir. Bola atrof-dagi sodir bo'layotgan voqealarni kuzatish orqali o'rganadi, tarbiyachi va kattalar esa unga taqlid uchun namuna bo'lib xizmat qiladilar.

Tayyorlangan muhit

Tayyorlangan muhit bolaga barcha e'tiborini o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirishga imkon beradi. Bunday muhit tabiatda mavjud emas, shuning uchun biz uni yaratishga harakat qilishimiz kerak. Kattalar bolaga nisbatan samimiy bo'lishlari va uning rivojlanish bosqichlari to'grisida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

Montessori "biz ularda tugilajak aqliy tuygularni ehtiyojkorlik bilan rivojlantiruvchi hamda mashq qilidiruvchi omil hisoblanamiz". Demak biz bolalarni rivojlantiruvchi asosiy omil ekanmiz, inson uchun nima muhim biz ularga nisbatan qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? - degan savolga javob izlashimiz zarur. Eng avvalo bola bizning shaxsiy mulkimiz degan fikrdan qutilishimiz kerak. U nafaqat o'z oilasining a'zosi balki jamiyatning bir bo'lagi ekaniga ko'nikishimiz zarur. Bundan tashqari bola boshqalarga tegishli bo'lgan yagona insoniy hilqat hisoblanishini ochiq tan olishimiz juda muhim.

Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat yurituvchi asosiy shaxs hisoblanadilar. Shuningdek, bolalarning ruhiy rivojlanishida ham cheksiz quvvat manbai hisoblanadi. Bolalarga faqatgina kattalar

tomonidan yoki o'z xohishi bilan yoxud belgilangan dasturga ko'ra taqdim etiladigan "taomni" qabul qilishgina qoladi, xolos. Va shu o'rinda "erkinlik", "erkin tarbiya" deb ataluvchi tushunchani yuzaga keltiradi. "Erkinlik" masalasi qancha ko'p muhokama qilinmasin, bola baribir qaram bo'lib qolmoqda. Hattoki unga yuqori darajada e'tibor ko'rsatilganda ham u erkin emas, balki "qarovsiz"dir. Ya'ni, uning intellekti qarovsiz, "yoqimsiz taomni tanovvul" qilishga majbur. Natijada rivojlanish uchun keng erkinlik beruvchi hissiyotlarga bo'ysunadi. Faqatgina shunchaki harakatlanadigan bola erkin hisoblanmaydi. Balki o'z harakatlarida aniq o'ylangan maqsadga ega bo'lgandagina muayyan tashkil etilgan sharoitda o'z shaxsini rivojlantirishga va shakllantirishga qodir. Shaxsiy rivojlanishi uchun uning o'zi mustaqil ish tanlay oladi.

O'z salohiyatini yuzaga chiqarib, uni yuksaltirish uchun turtki bera oladigan bolagina erkin hisoblanadi.

O'quv qollanmalari

Montessori o'yin maydonini jihozlash uchun bir necha qoidalarga amal qilinishi kerak.

Qo'llanmalarining aksariyat qismi bola harakatga keltirishi mumkin bo'lgan yogoch patnislarga joylashtiriladi. Bunday qo'llanmalar estetik ko'rinish, yaxlit va bir-butunlikni tashkil qiladi va bolani yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Barcha qo'llanmalar bolaning qo'li yetar darajada joylashtiriladi va quyidagi toifalarga bo'linadi:

- **Amaliy hayot;**
- **Sensor rivojlanish;**
- **Hisob-kitob va sanashga o'rganish;**
- **Til;**
- **Kosmik yoki tabiiy ilmiy tajriba.**

Montessori qo'llanmalari uchun alohida hona ajratish va ularni boshqa o'yinchoqlar bilan aralashtirmaslik kerak. Agar buning iloji bo'lmasa, bir yoki bir nechta tokchali maxsus maydonni

yaratishga harakat qiling va materiallarni turli hil toifadagi qo'llanmalarga ega bo'lgan patnislarga doimiy o'z joyida qoladigan qilib joylashtiring.

Ishlatilganidan so'ng qo'llanmalar o'z joylariga asl tartibda joylashtiriladi. Material bola uchun juda qiyin emasligiga ishonch hosil qilish kerak; agar bola uni o'zlashtira olmasa, u o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotadi, material toliq o'zlashtirilganiga amin bo'lganingizda, bola uchun yangi qiyinroq vazifa qo'yilishi mumkin.

Ushbu tamoyillarga e'tibor qilinsa, bolalar bilan quyidagi maqsadlarga erishiladi:

- * **mustaqillikni rivojlantirish;**
- * **diqqatni jamlashni rivojlantirish;**
- * **o'ziga bo'lgan ishonch va kattalarga bo'lgan ishonch munosabatini rivojlantirish;**
- * **idrokni rivojlantirish;**
- * **mayda motorikani rivojlantirish;**
- * **dunyo haqidagi bilimlarni egallash.**

Agar bola materialni o'zlashtirgan bo'lsa, unda qo'llanmalar bilan xohlagancha ishlashi mumkin. Mashgulotni bir-necha bor to'g'ri bajarganidan so'ng uning e'tibori susaya boshlaydi, uni yangi qiyinroq mashgulot bilan chalgitish kerak.

Bolalar bilan mashgulotlar o'tash kattalarga ham katta quvonch keltiradi. Bolada shaxsiyatini yaratish va yuksalish uchun uning dunyosini boyitishga tayyor bolgan kattalarga ishonch hissi kuchayadi. Bolaga hayotda o'z o'rnini topishga, o'zidagi yaxshi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi va uni baxtli qiladi.

Montessori metodi Bolani har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Montessori metodikasi bolani nafaqat pedagog bilan, balki otasi, buvisi bilan uy sharoitida o'ynashga moslashtirilgan

Metodning bosh goyasi

Bolani mustaqil rivojlanishiga turtki berishdan iborat

Montessori metodikasida bolaga talim berish emas, balki uning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilib turishdan iborat.

Metodikada bolaning o'z-o'zini nazorat qilishi, hatolarini o'zi topib, mustaqil tuzatishiga sharoit yaratilgan

Montessori metodining bosh shiori:

Buni mustaqil bajarishimga imkon ber

Mariya Montessori metodining asosiy qoidalar.

Bugungi kunda jahon maktabgacha ta'lim tizimida italiyalik mashhur pedagog Mariya Montessorining mualliflik metodikasi juda keng tarqalgan. Bu pedagogik tizimning noan'anaviy 10 ta qoidasiga quyidagilar kiradi:

1. Bola – asosiy e'tiborda;

Mariya Montessorining bolaning xohish-istaklariga qarab munosabatda bo'lish eng to'g'ri va yagona yo'l, degan qat'iy fikri mavjud. Bola uchun nima muhimligi uning o'zigagina ma'lum. U suvni idishlarga quyib, uning xossalari va jozibasini o'rganishga bir soat vaqt ketkazishi mumkin, bu paytda uni rasm chizish yoki boshqa mashg'ulotga chalgitish montessori pedagogikasiga zid.

2. Pedagog bolaning diqqatini bo'lmasdan yo'naltiradi;

Albatta, bola ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Kattalar muntazam ravishda kichkintoy bilan hamnafas, lekin ular bolaning tabiiy qiziqishlarini so'ndirmaslik, bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini barbad qilmaslik uchun ehtiyotkorona yondashishi kerak. Montessori kundaliklarida tarbiyachilarni tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor berish zarurligini ta'kidlagan. Shogirdlarining metodikasi bo'yicha olgan yangi nazariy bilimlarini hayotda qo'llay olmasligining guvohi bo'lgach, pedagoglarning bolalar bilan ishlashida an'anaviy usullarning yangisi bilan uygunlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

3. Bolalar atrofidagi muhit ularning qiziqishlariga qarab o'zgartiriladi;

Muhit – montessori pedagogikasining poydevoridir. Bolalar xonasidagi jihozlar ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtiriladi va ularning qiziqishlariga mos ravishda o'zgartirib turiladi. Tarbiyachilarning qo'llari "guruh pulsi"da bo'lib, bolalarni kuzatib boradi va jihoz, ko'rgazmalarni mashg'ulotlar mazmuni, dolzarbligiga qarab yangilaydi. Montessori ta'limoti bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar uchun sensor amaliy nutq o'stirish va rivojlantirish muhiti, matematik tasavvurlarni shakllantirishga sharoit yaratadi.

4. Ba'zi mashg'ulotlarda yoshlari har xil bolalar birga shug'ullanishi mumkin;

Bolalar juda ko'p narsalarni o'zidek bolalarga qarab o'rganadi. Yoshlari har xil bolalar jamoasi bunday tajriba almashish uchun qulay muhit. Bola vaqt o'tib qanday rivojlanish darajasida bo'lishi kerakligini kattalardan o'rgansa, o'zidan kichiklar bilan hayotiy tajribasini bo'lishishdan zavqlanadi. "Zamonaviy oila"larda (kun davomida ishda bo'ladigan ota-onalarning bolalari bilan muloqotga vaqti qolmaydi) bolalarga taqqoslash, rivojlanish, o'zini namoyon qilish uchun sharoit yetarli emas. Shu sababli aynan shunday mashg'ulotlar bolada o'ziga ishonch hosil qilish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun qulaydir.

5. Bolalar mashg'ulotlarda erkin bo'lishi kerak;

Guruhdagi bolalar mashg'ulot uchun maxsus xonaga kirgach (Montessori metodikasida mayda va yirik motorikani rivojlantiruvchi, tabiat bilan tanishtiruvchi, nutq o'stirish mashg'ulotlari va hokazolar uchun alohida xonalar jihozlanadi), uning xohish-istaklari hisobga olinadi. Yangi bilimlar tarbiyachi tomonidan bayon qilingach, bola o'zi tanlagan o'yinchoq yoki jihoz bilan o'ynashi, ba'zan

bu jarayonda ular bitta o'yinchoqni talashib qolishi mumkin. Bu holat montessori metodikasining keyingi qoidasini keltirib chiqaradi.

6. Bola yakka o'ynash yoki tengdoshlari bilan shug'ullanishni o'zi tanlaydi;

Bolalar o'zining mustaqil fikrini erkin bayon qilish, boshqalar fikrini hurmat qilish, bir-birlari bilan hamkorlikda ishlash, o'zaro til topishishni erkin muhitdan o'rganadi. Buni tarbiyachi nazorati ta'minlaydi. Guruhga yangi kelgan bola yil oxirida bir-birlarining xohish-istaklarini hurmat qilib, kelishib shug'ullanishni o'rganadi (bu ko'nikmalar ular katta bo'lgach, mustaqil hayotda asqatadi)

7. Bolalar qancha xohlasa, shuncha vaqt shugullanadi

Montessori guruhida bolalarga bosim o'tkazilmaydi, uning qo'lidagini "bu yoqqa ber!" deb tortib olishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bola barglarni o'rganib o'tirgan bo'lsa, ikki daqiqadan so'ng sabzavotlar bilan shug'ullanishni xohlasa, "Qaragin, qanday chiroyli rangli barglar bor" deyilmaydi, bu mazkur metodikaga ziddir.

8. Guruhda, hatto kattalar ham amal qiladigan qoidalar mavjud;

Masalan, guruhdagi har bir jihoz, ko'rgazma va o'yinchoqlarning o'z joyi bor.

Bolalar (kattalar ham) mashg'ulotdan so'ng hamma narsani o'z joyiga qo'yish kerakligini yaxshi biladi. Vaqt o'tib, bu ko'nikma malakaga aylanib, eslatmasiz bajariladi. Yana montessori guruhida bolalar tarbiyachi ko'magida bir-biriga xalaqit bermasdan, xotirjam ishlashni o'rganadi, hatto pedagoglar ham baland ovozda baqirishi mumkin emas.

9. Bolaga o'z ishini o'zi baholashiga imkon beriladi;

Montessori metodikasida shunday jihozlar borki, bola mustaqil ravishda shug'ullanib, yangi bilim hosil qiladi. Masalan, har xil shakldagi silindrlarni o'z hajmiga mos joylarga joylashtirishdir. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, tarbiyachi ko'rsatmasi bilan topshiriqni bajargan bolalar ertasiga ushbu vazifani qaytadan ko'rsatib berishda xatolikka yo'l qo'ydi, mustaqil bajargan bolalar silindrlarni deyarli bexato bajardi. Mustaqil o'zlashtirish jarayonida ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin, lekin ular olgan bilimlarini xotiralarida mustahkam saqlab qoladi.

10. Bola murojaatisiz yordam berish taklif qilinmaydi;

Bolaning mustaqilligi qo'llab-quvvatlanadi, hech kim uni shoshirib, kerak bo'lmasa ham yordam beravermaydi. Lekin har bir bola doim savol tugilganda tarbiyachining yordam berishini his qiladi.

Nazorat savollari:

1. Mariya Montessorining birinchi kashfiyoti haqida so'z yuriting
2. Mariya Montessorining ikkinchi kashfiyoti-"sezgirlik davrlari" haqida ma'lumot bering
3. Bolani erta rivojlantirishga yo'naltirilgan prinsiplarga muvofiq Montessori kattalarga qanday vazifalarni beradi?
4. Montessori o'yin maydonini jihozlash uchun qanday qoidalarga amal qilinishi lozim?
5. Montessori metodikasining pedagogik tizim sifatidagi bosh joyasi
6. Mariya Montessori metodining asosiy qoidalari haqida ma'lumot bering.
7. "Guruhda, hatto kattalar ham amal qiladigan qoidalar mavjud"- ushbu qoidaga izoh bering
8. "Bola murojaatisiz yordam berish taklif qilinmaydi"- ushbu qoidaga izoh bering

3-Mavzu: Montessori ta'lim tizimining tarkibiy qismlari

"Har bir bolada insonni ko'rishga harakat qilaman, menga bolani biror narsaga o'qitish shart emas. Bolaning o'zi menga o'z tabiatini ochib beradi, faqat buning uchun ular munosib tarzda yaratilgan muhitda bo'lishlari kerak" Mariya Montessori.


Montessori ta'lim tizimining 3 asosiy tarkibiy qismlari:

Bola ta'lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Bola mashg'ulot uchun maxsus xonaga kirgach uning xohish-istaklari hisobga olinadi. Yangi bilimlar tarbiyachi tomonidan bayon qilingach, bola o'zi tanlagan o'yinchoq yoki jihoz bilan o'ynashi mumkin.

Muhit – Montessori pedagogikasining poydevoridir. Bolalar xonasidagi jihozlar ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtiriladi va ularning qiziqishlariga mos ravishda o'zgartirib turiladi. Tarbiyachilarning qo'llari "guruh pulsi"da bo'lib, bolalarni kuzatib boradi va jihoz, ko'rgazmalarni mashg'ulotlar mazmuni, dolzarbligiga qarab yangilaydi.

Tarbiyachi muntazam ravishda kichkintoy bilan hamnafas, lekin ular bolaning tabiiy qiziqishlarini so'ndirmaslik, bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini barbod qilmaslik uchun ehtiyotkorona yondashishi kerak.



- bola
- atrof-muhit;
- tarbiyachi.

Montessori tizimining sxematik ko'rinishi:

1. Markaz – mustaqil qaror qabul qiluvchi **bola**.
2. Atrof – bolaga rivojlanish imkoniyatini beruvchi **muhit**.
3. Yonida – bola iltimosiga ko'ra ko'maklashuvchi **tarbiyachi**.

***bolalarni kuzatadi *bolalarni uyushtiradi *mahsus sharoit**

yaratadi *bolalarga rahbarlik qiladi

***bolani borligicha qabul qiladi**

Bola

***mustaqil o'rganadi**

*** o'z hatolarini o'zi topadi * hatolarini o'zi tuzatadi**

***boshqalar bilan fikrlashadi**

Atrof muhit

***bolaga tanish *bolaga qiziqarli**

***sodda va qulay**

***bolaga tushunarli**

Montessori ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari bola rivojlanishining individual yo'lini amalga oshirishga imkon beradi:

Quyida biz metodikada kattalarning vazifasi haqida qisqacha ta'rif berib o'tishga harakat qilamiz:

1. M. Montessori tizimida kattalar bolalarga yuqorida ko'rsatilgan hajmda yordam berishlari kerak bo'lsa-da, tarbiyachining haqiqiy roli juda katta. Kattalar o'z tajribalari, donoligi va tabiiy qobiliyatidan foydalanib, metodikani his qilishlari, mashg'ulotlar uchun haqiqiy rivojlanish muhitini yaratish va samarali didaktik materiallarni tanlash uchun tayyorgarlik ishlarini bajarishlari kerak.

2. Kattalarning asosiy vazifasi, mashg'ulot jarayonida bevosita bolaga nisbatan, uning atrofidagi dunyoni egallashga, o'z bilimlarini etkazishga emas, balki bolaning o'zini tahlil qilish va tizimlashtirishga yordam berishdir. **"Boshqa bir odam bizning o'rnimizga mashq qilib, bizga mahorat orttirish imkonini berishi aqlga sigmaydigan holatdir"**, deydi Montessori.

3. Metodikada kattalar bolaning harakatlarini kuzatib boradi, uning moyilligini belgilaydi va bolaning o'zi tanlagan didaktik materiallari bilan oddiy yoki murakkab vazifalarni bajaradi. Bola bilan bir xil darajada bo'lish uchun kattalar erga yoki gilamga o'tirishlari kerak.

Mashgulotda kattalarning vazifasi qanday?

Birinchidan, tarbiyachi bolani diqqat bilan kuzatib boradi, u qanday materialni tanlaydi. Agar bola tanlangan materialga birinchi marta murojaat qilayotgan bo'lsa, tarbiyach bolaga material bilan o'ynashni tushuntiradi va qiziqtiradi. U bolaga vazifani qanday qilib to'g'ri hal qilishni ko'rsatadi. U bolaga didaktik material va uni o'ynash haqiga qisqa va sodda qilib tushuntiradi. So'ngra bola o'z-o'zidan o'ynay boshlaydi va tarbiyachi ko'rsatganidek emas, balki xato, materialdan foydalanishning yangi usullarini qo'llay boshlaydi. Montessori tizimida bola faoliyatning bunday ijodiy rivojlanishi katta kashfiyot amalga oshirilayotganini anglatadi!



Metodikada kattalar bolani o'zi yaratishga imkon berishlari kerak! Axir, hatto kichik bir eslatma ham bolani chalg'itishi, uni to'g'ri yo'nalishda qadam qo'ymasligiga sabab bo'lishi mumkin..

Shu nuqtai nazardan, atrof-muhit bolaning ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Montessori tizimiga ko'ra, bolalarni rivojlantirish jarayonini tezlashtirmaslik kerak, ammo bolaning bu mashgulotga

qiziqishini yo'qotmasligi uchun to'g'ri vaqtni o'tkazib yubormaslik muhimdir. Montessori bogchalarida o'tkaziladigan mashgulotlarning o'ziga xos xususiyati cheklaydigan bolalarni jihozlarning (stol, stul) yo'qligi. Va bolalarga qulay bo'lgan joyga yoyilgan gilamlar.

Agar jarayonga aralashmasa, tarbiyachi nima uchun kerak?

Birinchidan-tarbiyachi bolaga (yoki 2-3 ta bolaga) o'quv materialini taklif etadi, uni qanday qo'llashni ko'rsatadi.

Va uning taqdimoti bolaning mashqning mohiyatini tushunishi, uni amalga oshirishni xohlashiga bogliq. Keyin bola material bilan o'zi mustaqil ravishda ishlaydi, tajriba va bilim to'playdi

Ikkinchidan-tarbiyachi bolani diqqat bilan kuzatib boradi va unga yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, o'qituvchi bolaning harflar bilan qiziqishini uygotayotganini ko'rganida u bolaning atrofida til zonasini yaratadi, unga boshqa o'yinlarni ko'rsatadi — kartalar, harakatlanuvchi alifbo, aylana va soyalar uchun ramkalar, bularning barchasini ishlatishga o'rgatadi.

Montessori pedagogikasida eng asosiysi — tashkillashirilgan muhitda bola o'z shaxsini mustaqil rivojlantirishi.

Shu tamoyilga asoslangan ta'lim jarayonida bolalar o'z ehtiyojlarini namoyon etadilar, tarbiyachilar esa kuzatgan holda har bir bolaga kerakli individual yordam turini aniqlaydilar.¹⁰

Montessori-tarbiyachilari bolalar bilan muloqot qilishadi, lekin o'z fikrlarini "o'tkazmaydilar", bolalarni savollarga kerakli javoblarni berishga harakat qiladilar.

Bolalarga ishini tashkil etishga yordam bering, lekin uni bajarmang. Shu bilan birga, ular bolaning qoniqish hissi bilan ishlashni tugatishiga gamxo'rlik qilishadi. Montessori guruhi faoliyat zonalariga bo'lingan rivojlantiruvchi makonni o'z ichga oladi. Bolalar zona va ish uchun materialni mustaqil tarzda tanlaydilar.

U bir o'zi yoki boshqa bolalar bilan mehnat qilishi mumkin. Lekin shunday qoida mavjud: agar bola zonada o'zi bo'lsa, unga hech kim

xalaqit bermasligi kerak.

Bajarish sur'atini ham bolalar belgilaydilar. Guruhda – faqat surishga oson stolchalar va stulchalar, shuningdek, gimnastika mashg'ulotlari uchun polda gilamchalar bor.

Yuz berayotgan barcha jarayonlarni tarbiyachilar zonalarda kuzatib turadilar va ehtiyotlik bilan yo'naltiradilar, didaktik material bilan ishlashga bo'lgan qiziqishni to'g'irlab turadilar.

Nazorat savollari:

1. Montessori ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering 2. Metodikada kattalarning vazifasi haqida so'z yuriting

3. "Boshqa bir odam bizning o'rnimizga mashq qilib, bizga mahorat o'rttirish imkonini berishi aqlga sigmaydigan holatdir", Montessorining ushbu fikriga izoh bering

4. Agar jarayonga aralashmasa, tarbiyachi nima uchun kerak?

4-Mavzu: Mariya Montessori metodikasida

ko'rgazmalilikning o'rni.

Mariya Montessori ta'lim tizimining bir qismi sifatida bolaning barkamol rivojlanishi uchun asosiy harakat kerak – bola atrofida bunday muhitni tashkil qilish uchun, atrof-muhitni o'rganishida qiziqish va istakni uygotuvchi didaktik materiallar lozim.

Material – tabiiy materiallardan qilingan o'ziga xos didaktik qo'llanma. U o'ziga xos ta'lim beruvchi xususiyatlarga ega.

qiziqish uygotib, o'ziga jalb etadi;

ko'zga tashlanadigan farqli xususiyatga ega (uzunligi, qalinligi va hk.);

xatoni yaqqol ko'rsatadi – bolaga uning harakatlari noto'g'ri ekanini ko'rish imkonini beradi.

Montessori didaktik materiallari bilan har qanday mashq

Ikki maqsadga ega:

To'gridan-to'g'ri va yashirin:

Birinchisi bolaning haqiqiy harakatiga hissa qo'shadi (tugmachalarni ochish va boglash, teng darajadagi shakllarni toppish, silindrlarini tahlash),

Ikkinchisi esa bolaning intellektual rivojlanishiga, kelajakka qaratilgan maqsad, bu didaktik materialga aqliy va jismoniy rivojlanish uchun muayyan imkoniyatlar yaratadigan kattalardan keladi.

(mustaqillik, harakatlarni muvofiqlashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish).

Bundan tashqari, vaziyatning o'zi va mutlaqo barcha imtiyozlarning mavjudligi bolalarni atrofda dunyoga kalitlarni izlashga undaydi.

Montessori boghasining tajribasi didaktik materiallardir. Bu materiallar bir necha qismga bo'linadi

1. His tuygylarni tarbiyalashga mo'ljallangan

2. Yozish va o'qishni o'rgatuvchi

3. Hisobni o'rgatuvchi

Mariya faqat o'qituvchi emas, balki shifokor, psixolog, antropologiya professori sifatida bolaning ruhini rivojlantirish jarayonida bilimning asosi bo'lgan unga jonli va doimiy qiziqish uyg'otadigan murakkab yondashuvni qidirdi. Montessori ta'lim tizimining markazida bolaning o'zi, uning ma'naviy aqliy rivojlanishi turar ekan. Ushbu asosiy maqsaddan kelib chiqib Mariya bolaning barcha ehtiyojlarini qondiradigan va ayni paytda kichik tadqiqotchi uchun qulay muhit yaratadigan original didaktik materiallarni ishlab chiqdi..

Montessorining sensor didaktik materiallari narsa buymlarning sifatini, o'lchami, shakli, rangi, yuzaning silliqligi va gadir-budirligi, ogirligi, harorati, hidi, ovozini tahlil qiladi va ko'rsatib beradi. Montessori metodikasida predmetlarning sifatigina bir-biridan farqlanadi. Unda bolaning e'tiborini tortuvchi sifatlar mavjud bo'lib, uni qiynab qo'yuvchi barcha ortiqcha belgilar olib tashlangan.

M: Balandlik va hajmni farqlash imkonini berish uchun bolaga shunchaki hajman har-hil bo'lgan slindr, kub va prizmalar berish kerak. Qo'ziqorin, tuhum yoki shunga o'hshash narsalar berilmaydi.

Shaklni farqlash uchun tekis geometrik shakl va jismlardan foydalaniladi. Uycha, gul va olmalar bu tarkibga kirmaydi.

Rangni farqlashda esa qogirchoq, gul yo'ki o'yinchoqlardan emas Oddiy shoyi qirqimlardan foydalaniladi Montessori metodikasida predmetlarning sifatigina bir-biridan farqlanadi

O'yinchoqlar oddiy, tushunarli xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi Montessori. Turli va ko'p funktsionallik bolalarni chalkashtirib yuboradi, ortiqcha hissiy stressni keltirib chiqaradi.

Montessori didaktik materiallarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Kichik yoshdagi bolalar uchun.

Bunga sensorli haltalar, turli xil yogoch shakllar, geometrik jismlar, oddiy piramidalar, diskalar, halqalar, va murvatlar kiradi. Katta tafsilotlar bilan bir xil yog'och jumboqlarni ifodalovchi laynerlar bilan qiziqarli ramkalar An'anaviy jumboqlardan farqli o'laroq, bu plitalar turli xil funktsiyalarni bajaradi. Ularning yordami bilan bola oddiy geometrik shakllar bilan tanishib, ranglarni ongli ravishda ajratib olishni, hisob-kitob qobiliyatlarini va dizayn tajribasini olishni o'rganadi.

Yosh bolalar uchun didaktik materiallar orasida devor va stol modullari — ma'lum bir ob'ektga ega bo'lgan yogoch qo'shimchalari; turli to'qimalarning materiallari, qulflar va harakatlanuvchi qismlar, turli shakllarning tafsilotlari va boshqalar. Ular mayda motorikani rivojlantirish, hissiy sezgilarni boyitish, bilakni aniq harakatlarga tayyorlash uchun mo'ljallangan. Bunday o'yinchoqlar bilan shug'ullanayotganda, bolalar doimiy rivojlanish jarayonida: ular his qilishadi, narsalarni bir-biriga qo'shib qo'yishadi, almashtirishni o'rganadilar. Bu harakatlar bolaning aqliy rivojlanishiga imkon beradi: bola taqqoslash, aks ettirish, bilimga bo'lgan ehtiyojini to'liq ro'yobga

chiqarish imkoniyatini o'rganadi.

Sezgilarni rivojlantirish uchun

Montessori materiallarining bu guruhiga ta'mni o'rganish uchun bankalar, shovqinli shilinglar, pushti minora va jigarrang narvon kabi materiallar kiradi. "Pushti minora" o'yini turli o'lehamdagi ogir yogochdan tayyorlangan o'nta kubdir. Ushbu qo'llanma bilan mashg'ulotlar bolalarni turli miqdorlar bilan tanishtiradi va ularni "katta — kattaroq — eng katta" va "kichik — kichikroq — eng kichik" tushunchalari bilan shakllarni farqlashni o'rgatadi.

Jigarrang narvon-har xil balandlikdagi yogoch prizmalar shaklida tayyorlangan qo'llanma, bolalarga "yupqa— eng yupqa" va "qalin — qalinroq — eng qalin" tushunchalarini o'rganishga yordam beradi.

Amaliy hayot uchun.

Montessori pedagogikasida bolaning hayotida alohida o'rin tutadigan uning ta'lim olishi va rivojlanishini, amaliy ko'nikmalarga egallashi uchun materiallar muhim. Bunday funktsional o'yinchoqlar orasida bolalar katlama, kurutgich, dazmol va dazmol taxta, to'quv dastgohi, skrining stol, to'kish to'plamlari, meva va sabzavot mahsulotlarining kesilgan to'plamlari, qo'l yuvish to'plamlari, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun turli xil to'plamlar

Bu qo'llanmalar nafaqat haqiqiy o'yinchoqlar, balki kattalarning faoliyat yuritadigan haqiqiy hayot ob'ektlaridagi miniatyuralardir. Ushbu guruhda bolalar mustaqil ravishda qo'l yuvish, idish yuvishi, stol tuzashi, kiyinishni o'rganishlari mumkin.

Matematik tasavvurlarni shakllantirish.

Ushbu materiallar guruhiga taktil raqamlar, raqamli bar, matematik harakatlar uchun turli xil o'yinlar, matematik planshetlar kiradi. Ushbu va boshqa ko'plab materiallar yordamida bolalar raqamlar tarkibi, miqdori, hisob-kitob, raqamlarni taqqoslash kabi tushunchalar bilan tanishadilar. Bolalar dastlab qo'shish va olib

tashlash amallarini o'zlashtiradilar, so'ngra amallar murakkablashib boradi.

Nutqni rivojlantirish.

Montessori tizimi alfavitning turli xil variantlarini qo'llashni o'z ichiga oladi:

Bosma harflar, rasmlı albom shaklida, harakatlanuvchi, jumboq formatida yoki teginish uchun yoqimli, metall ramkalar shaklida qo'shimchalar va rangli kitoblar. Bolalar harflar bilan tanishganda o'qishga bo'lgan qiziqishlari uygonadi, o'qish uchun rangli kitoblar tavsiya qilinadi

Atrof olam bilan tanishish.



Montessori metodikasida qiziquvchan bolalarni atrof – muhitni o'rganishi hayvonot va o'simlik dunyosining xilma-xilligi bilan tanishtirish uchun er va suv shakllari, zodiacal doira, butun yil, kun va tun, vaqt va soat, dunyo, qit'alarining to'plamlaridan foydalanadi

Musiqiy rivojlanish uchun materiallar.

Bunga shovqinli o'yinchoqlar, shiqildoq, tovush chiqaruvchi bolga kiradi. O'yinchoqlardan tovushlarni chiqarish orqali bolalar nozik eshitish hissi va musiqiylikni, ijodkorlik va tasavvurni rivojlantira oladi.

Yuqorida keltirilgan ro'yhat ushbu tizimda ishlaydigan o'qituvchilar o'z ishlarida foydalanadigan Montessori materiallarining to'liq ro'yxati emas. Yogoch, metall, tabiiy jun yoki yuqori sifatli karton: kabi materiallardan tayyorlangan to'plamlarning ko'pligiga qaramay, bolalar an'anaviy o'yinchoqlar bilan o'ynashi mumkinligini

qayd etish lozim: qo'g'irchoqlar, mashinalar, faqat ular tabiiy materiallardan bo'lishi kerak.



Yosh boladagi diqqat-e'tiborni uygotish, uni uzoq vaqt aynan bir nuqtaga jamlash qobiliyati bu shubhasiz, Montessorining maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashdagi yutugi deya ta'kidlash mumkin.

Montessori metodikasiga binoan boladagi diqqatni tarbiyalash uchun quyidagi sharoitlarning yaratilishi muhim:

1-shart boladagi tashqi tuygularni tarbiyalovchi didaktik materiallar. (narsa va buyumlar). Sensor rivojlantiruvchi uslubiy mashqlar tarbiyachilar uchun diqqat madaniyati haqidagi savol yechimidir.

Shuni esda tutishimiz kerakki, deydi Montessori "Bola diqqatining faktorlari sezgi a'zolari moslashishida kuchli fiziologik hamroh hisoblanadi"

"Sezgilar beshta bo'lib, ular quloq bilan eshitish, ko'z bilan ko'rish, burun bilan hidlash, til bilan tatish va teri bilan tegib bilishdan iboratdir."

Ilm va ma'rifat faqatgina o'shalar orqali hosil bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy Montessori shuni isbotlab berdi

Boladagi sensor rivojlanishga bo'lgan qiziqishning so'nishi bir narsada yaqqol ko'rinadi, yani olti yoshga yaqinlashganda unda mushak sezuvchanlik mashqlariga qiziqish susayadi va kamayib ketadi. Maktabgacha yoshdagi bola tashqi olamni anglashda ma'lumotlarni sezuvchanlik mashqlari orqali olgan bo'lsa, endi u (6 yoshdan oshgan bola) zahirasidagi barcha bilimlari, tajribalari asosida idrok qiladi, mantiqiy hulosalaydi va tashqaridan yangi bilimlarni (to'gridan-to'gri) oladi. O'z shaxsini shakllantiradi

2 – shart bu erkinlik


Birinchidan narsa va buyumni erkin tanlash. Ikkinchidan mashqlarning erkin davomiyligi. Bola predmetga shunchaki nazar solishi etarli emas, aksincha u predmatga “egalik” qilishi kerak. Aynan shu sharoitdagina diqqatni jamlash mumkin bo'ladi.

3- shart predmetga nisbatan aqliy munosabatni tarbiyalash. Ya'ni bolada predmetga nisbatan ichki ruhiy mayl bo'lishi kerak. Boladagi aqliy markazlar aynan o'sha narsaga qaratilgan bo'lishi kerak. Ikki kuch birlashishi kerak ya'ni tarbiyachi bor mahorati bilan bolalar diqqatini tarbiyani qabul qilishga tayyorlashi kerak.

4-shart bu qiziqishdir. Tashqi predmetlarning hammasi ham bola diqqatini birdek jalb qilavermaydi. Bolaning qiziqishi esa ehtiyoji uchun zarur bo'lgan predmetni izlaydi.

Ko'pchilik bolalar aksariyat bir hil muhitda yashaydilar, ammo ular muhitdan sifat va son jihatdan turlicha bahramand bo'ladilar. Bola gayrioddiy ichki kuchi chorlayotgan, o'zi uchun foydali deb bilgan narsalarga etiborini qaratadi. Bolaning tashqi olam ta'sirida shakllanadigan “Men”i ichki mayl va qiziqishlar yo'nalishi sanaladi.

Yosh go'dak ham kattalar bilan bir hil muhitda yashaydi, ammo farqli jihati atrofda murakkab olam uning zaif ongida katta taa'ssurot qoldiradi.



• Agar bu muammoga chuqurroq yondoshsak, “oltin bolalik” iborasini birmuncha ikkilanishlar bilan aytgan bo'lar edik.

• Bolalarning “Nimaga?”, “Nima uchun?”, “Nega shunday?” kabi ohiri yo'q savollari aslida tashqi muhit bilan munosabatda asabiy toliqishlarning, har bir tushuncha va izohni qiyinalib izlashining ifodasi emasmikan?


• Erkin hotirjam muhitda, ya'ni Montessori aytganidek bolaning yoshiga mos uning tirfa savollariga javob beruvchi predmetlarga ega bo'lishi bilan u bir muncha ruhiy tinchlanadi.

*“Ruhan sog'lomlik- inson salomatligi va hatto hayot masalasidir”
M.Montessori*

4. Bolalar uchun ta'lim nima beradi?

2006 yilda “Science” jurnali Montessori tizimining samaradorligi bo'yicha tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Tadqiqot natijadagi 53 ta Montessori maktabining o'quvchilari, AQSh — bolalar 3 dan 5 yilgacha va 6 dan 12 yilgacha bo'lgan ikki 41guruhga bo'lingan. Olimlar o'quvchilarni bir necha mezonlarga ko'ra baholadilar.

Ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha Montessori maktabiga borgan bolalar boshqa maktablarga tashrif buyurganlarni ortda qoldirdilar. Misol uchun, ular o'qish va matematika testlarini yaxshiroq bajarishdi.



Nazorat savollari:

1. Montessori ta'lim tizimining tabiiy didaktik materiallari qanday ta'lim beruvchi xususiyatlarga ega?
2. Montessori ta'lim tizimining tabiiy didaktik materiallari qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?
3. Montessori ta'lim tizimining tabiiy didaktik materiallari nechchi qismga bo'linadi?
4. Montessori metodikasida bolaning amaliy ko'nikmalarga egallashi uchun didaktik materiallardan foydalaniladi?

5. Montessori metodikasiga binoan boladagi diqqatni tarbiyalash uchun qanday sharoitlarning yaratilishi muhim?

6. "Ruhan sog'lomlik- inson salomatligi va hatto hayot masalasidir" Montessorining ushbu fikriga izoh bering

7. Montessori tizimining samaradorligi bo'yicha tadqiqot natijalarini haqida ma'lumot bering

5-Mavzu: Mariya Montessori metodikasiga doir ilmiy tadqiqotlar va muammolar

Montessori har bir bolaning tugilishdan bilimga intilishiga ishondi. Ota — onalar va o'qituvchilarga kerak bo'lgan yagona narsa- rivojlanish muhitini yaratish, bolalarni ob'ektlardan foydalanishga o'rgatish va ularni qanday qilib, va qancha o'ynashni tanlashga imkon berishdir.

Tizimning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, bolalar hamma narsani oson va zavq bilan, o'z vaqtida, "majburiy" va tengdoshlari bilan raqobat qilmasdan o'rganadilar. Bundan tashqari, Montessori tizimida o'qigan bolalar har doim o'z vaqtlarini o'zlari tashkil qilishlari va boshqalarning ehtiyojlarini hurmat qilishlari va uy vazifalarini yaxshi bajarishlari mumkin. Shuningdek Montessori o'zining uzoq yillik tajribalaridan kelib chiqib bolalarning rivojlanish davri haqida ham alohida tavsiyalar keltiradi. Bolaning rivojlanish davrlarini sensitiv davrlar deb ataydi.

Sensitiv davrlar-bu bolaning bir yoki boshqa narsalarni oson, tabiiy ravishda o'rganadigan yosh davridir.

Vaqt hali kelmagan bo'lsa yoki aksincha, o'tkazib yuborilgan bo'lsa, bola uchu bu amallarni organish qiziq va oson yoki aksincha qiyin bo'ladi. Asosiy sensitive davrlar orasida Montessori oltitasini tanladi:

Montessori bolaning sensitive rivojlanish davrini oltiga bo'ladi:

1. Tartibni o'rganish davri (tugilgandan 3 yoshgacha). 3

yoshgach bo'lgan davr bolalarga tartib va tozalikka rioya qilishga o'rgatish uchun eng qulay davrdir. Bola faqat o'yinchoqlarni joyga qo'yishni emas, balki, to'kilgan suvni tozalash, to'kilgan donni tozalash, idishlarni yuvish va umumiy tozalashda ishtirok etishga o'rgatiladi. Bu yoshda bola o'zini pokiza tutish, kiyimlarini tahlash, poyabzallarni tozalash kabi amallarni oson va qiziqish bilan o'zlashtiradi va keyinchalik bu amallar bola uchun odatga aylanadi. (To'rt yoshli bolani ikki yoshildan ko'ra o'zini toza tutishga o'rgatish qiyin.)

2. Harakatlar rivojlanish davri (1yoshdan 4 yoshgacha). O'yin maydonchalari, zinapoyalada o'ynash davri. Bola kelajakda uning jismonan soglom o'sishida yordam beradigan mushaklarini faol ravishda rivojlantirishi va mustahkamlashi kerak.

3. Hissiy rivojlanish davri (tugildandan 5,5 yoshgacha). Bolaning tovushlar, hidlar va his-tuygular orqali dunyoni biladigan uzoq davr. Ayni paytda uning rang, shakl, o'lcham va boshqalar haqidagi tasavvurlari shakllanadi.

4. Mayda motorikaning rivojlanish davri (1,5 yoshdan 5,5 yoshgacha). Mayda narsalarni his qilish qobiliyatlarini rivojlanishida Montessori eng oddiy materiallardan foydalanishni taklif qildi: munchoqlarni ihga o'tkazish, loviya, no'xat va guruch kabilarni idishga solish, pazllarni terish.

5. Nutqni rivojlantirish davri (0 dan 6 yilgacha). Agar bola bir yoshgacha gapirmasa, hech qanday qorqinchli joyi yo'q. Bolalar nutqi olti yoshgacha rivojlanadi. Bu borada kattalar, ko'rgazmali qurollar, kartochkalar va kitoblardan foydalanib bolaga yordam beradilar. Va, albatta bolaning yonida kattalar — ota-onalar yoki tarbiyachilarning mavjudligi uning nutqi rivojlanishiga imkoniyatdir.

6. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish davri (2,5 yoshdan 6 yoshgacha). Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bolani salomlashish yoki muloyim bo'lishga majbur qilishdan — hech qanday ma'no yo'q.

Bunday tizimda ta'lim olgan bola oddiy maktabga moslashishi

qanday kechadi?

Montessori demokratik tizimida ta'lim olgan bolalar oddiy bog'chalar va maktablarda intizomga rioya qilish uchun partada o'tirishi va barcha bolalar kabi bir xil vazifa bajarishi qiyin kechadi. Bundan tashqari, oddiy maktabda bola o'qituvchiga nisbatan mutlaqo boshqacha ya'ni yordamchi emas boshqaruvchi sifatida munosabatda bo'ladi.

Bu tizim kim uchun mos kelmaydi?

Tizim bolani "erkin suzish"ga qo'yib yuborishga tayyor bo'lmagan ota-onalarga mos kelmaydi. Montessori guruhida faol bolalar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Agar bolaning ijtimoiylashuvi bilan bogliq muammolar mavjud bo'lsa, ular yomonlashishi mumkin, chunki bolalar bir-biri bilan kam muloqot qilishadi.

M. Montessori goyalarini zamonaviy ta'lim tizimida joriy etishning dolzarbligi muammosini tahlil qilib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. M. Montessori tomonidan ishlab chiqilgan usul nafaqat bugungi kunda butun dunyoda dolzarb bo'lib qolmoqda, balki bolalarning o'zini-o'zi rivojlantirish va o'z taqdirini belgilashga qaratilgan zamonaviy ta'limning asosiy maqsadiga to'liq mos keladi.

2. Ushbu usul doirasida qo'llaniladigan didaktik materiallar tizimi ta'lim sub'ektlarining qulay rivojlanishi va ijodiy rivojlanishiga yordam beradi.

3. Mariya Montessori tizimi ta'lim va tarbiya jarayonini to'liq shaxsiylashtirishga yordam beradi, ya'ni u bolaning shaxsiyatini shakllantirish uchun yordam beradi.

4. Mariya Montessori didaktik materiallarning xilma-xilligi bolalarning intellectual qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, ularning bilim faolligini oshiradi va bu muvaffaqiyatli ta'limning muhim shartlaridan biridir. Materiallar bilan ishlashda o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyati bolalarga mustaqil bo'lishga yordam beradi.

5. Montessori guruhidagi o'qituvchining ishi uchun asosiy talab -

Ishonch muhitini yaratish, bolaning shaxsiyatiga hurmat. Bunday muhit bolalarning rivojlanishida shaxs sifatida tez shakllanishiga yordam beradi.

6. Innovatsion Montessori-dasturlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan bir qator ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyati sifati va samaradorligining yuqori darajasi pedagogik monitoring bilan tasdiqlangan.

Mariya Montessori usuli insoniy pedagogikaning barcha talablariga javob beradi, uning fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayonining markazida boshqa bolalardan farqli o'laroq, noyob, bevosita bolaning shaxsiyati mavjud.

Montessori ta'lim tizimining kamchiliklari:

1. Montessori usuli faqat aqliy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Chap yarim sharning rivojlanishi e'tibor beriladi lekin o'ng yarim sharga "ijodiy" bolaning badiiy ijodkorligining rivojlanishiga deyarli e'tibor berilmaydi Montessori-metodikasida mukammal tahliliy qobiliyatini, mayda motorika va mantiq ko'nikmalarini shakllanishiga ya'ni, chap yarimshar sohalari rivojlanishini nazorat qiladi, lekin o'ng yarimshar rivojlanishiga e'tibor berilmaydi. Montessori bog'chasida bolalar ijodiy o'yinlar o'ynamaydi, bu bolaning intellektual rivojlanishiga yordam bermaydi, aksincha uni to'siq bo'ladi deb hisoblanadi. Intellektni rivojlantirish o'yinlari bilan shugullanadigan bolalarda oddiy qo'girchoqlar bilan o'ynash yoki bekinmashoq o'yini uchun deyarli vaqt yo'q.

2. Montessori-tizimi

Montessori tizimida bolalar san'atini qat'iy rad etadi

bolalarga erkin rasm chizishga yo'l qo'yilmaydi. Tayyor shablonlar(geometrik shakllar) va rasmlarni berib bolalardagi "Erkin ijod"ga bo'lgan intilish so'ndiriladi

Ijodkorlik, xususan, rasm chizish Montessori rivojlanishdagi og'ish deb hisoblanadi bolani hayoliy dunyoga qoldirib, uning hayotdagi oldida turgan muammolardan qochish istagi paydo bo'ladi.

Montessori bogchalarida rasm chizishga mo'ljallangan didaktik materiallar 10 ta geometrik shakldan iborat:

Doira, kvadrat, to'g'ri burchak, oval, romb, trapesiya, teng tomonli uchburchak, parallelogram, ellips, yulduzchalar kabi yassi tekis temir vkladkalardan iborat. Ramkali vkladkalar ancha ogir va qogozda sirpanmaydi, shuning uchun ulardan hatto 3 yoshlilar ham foydalanishi mumkin.

3. Montessori tizimi- badiiy adabiyotni rad etadi.

Montessori bogchalarida bolalarga ertak aytib berilmaydi, chunki ertak bolalar fantaziyasini haddidan oshirib yuboradi. Zero rivojlanmagan bola ongini be'mani hayollar chulgaydi. Bolalar o'zlari ishtirok etgan bo'lmagur, ma'nosiz narsalarni to'qiy boshlaydilar. Shu yerda hamma kattalarni tushkunlikka soluvchi "bolalar yolgoni" boshlanadi. Bolani hamma o'rab turgan narsa u uchun topishmoq bo'lsa va biz ular yangi javob topa olmaydigan yangi topishmoqlarni emas, balki ularni ochish uchun vositalar berishimiz kerak. Fantaziya faqatgina kichkina bolada u hali eng oddiy real narsalarni bilmagani va tajribaga ega emasligi uchun bo'ladi. Montessori bolani bu holatida ushlab turmasdan, aksincha unga tezroq madaniy hayot sharoitlarini ko'rish va uni o'rab turgan real narsalarni bilishga imkon beradi.

Ammo bu Montessori bogchalarida bolalarga hech narsa gapirib berilmaydi, degani emas. Ularga oddiy bolalar yoki hayvonlar hayotidan real narsalar gapirib beriladi va bolalar ularni qiziqish bilan tinglaydilar. Montessori bogchalarida gapirib berish usullari boshqa bogchalardagi usullardan farq qiladi: Bizda "Gapirish soatlari" mavjud emas, bolalarning hammasini bir guruhga yigib, stul yoki gilamlarda "kayfiyat paydo qilish uchun" o'tqazilmaydi. Ular faqatgina tinglashga majbur emas, shu bois faqat hohlovchlargina tinglaydi. Qolgan bolalar o'rtoqlariga halaqit bermasdan istagan mashguloti bilan shugullanishlari mumkin. Montessorining elementar sinovidan o'tgan kattaroq yoshdagi bolalarga badiiy ertaklar,

novellalar, masallarni aytib berish, o'qib berish yoki o'qib uchun o'zlariga berish mumkin. Fantastik asarning elementlari haqiqat emas, badiiy to'qima ekanini ma'lum darajada farqlash qobiliyatini egallagan bolalar uchun, Montessori aytganidek, ertaklar endi hayf solmaydi. Badiiy to'qimaning bolalar tomonidan haqiqat emas to'qima sifatida qabul qilinishi ularda badiiy asardan zavqlanish qobiliyatini o'stiradi.

Nazorat savollari:

1. Sensitiv davr-nima?
2. Montessori bolaning sensitive rivojlanish davrlarini nechchiga bo'ladi?
3. Bolada mayda motorikaning rivojlanish davri nechchi yoshdan kuzatiladi? 4. Bolada ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlantirish davri qaysi yosh davrlariga to'g'ri keladi?
5. Bunday tizimda ta'lim olgan bola oddiy maktabga moslashishi qanday kechadi? 6. Bu tizim kim uchun mos kelmaydi?
7. M. Montessori goyalari zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etishning dolzarbligi muammosini tahlil qilib qanday xulosalarni keltirish mumkin?
8. Montessori ta'lim tizimining kamchiliklari haqida ma'lumot bering

6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Mariya Montessori zonalarini yaratish.



Mazkur uslubning asosiy jihati, har bir bolaning yagona va takrorlanmasligiga bo'lgan ishonch, o'ziga hos rivojlanish rejasi, bolani o'rab turgan dunyoni o'rganish usullari va muddati ham kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Shuning uchun Montessori bolaga dunyoni o'z rivojlanish tempida o'rganish, ish uchun u yoki bu materiallarni o'zi tanlash imkonini beradi. **Bola o'z iqtidorini rivojlantirishi uchun Montessori guruhida imkoniyat katta.**

Haqiqat uchun bolaga dunyo to'grisidagi bilimlarni bir tizimga solishga yordam beradigan tayyor muhit yaratilgan.


Agar klassik o'yin xonasi haqida gapiradigan bo'lsak, u bir necha zonalariga bo'linadi: amaliy hayot, sensor rivojlanish zonasi, hisob-kitob va sanashga o'rganish, til zonasi, kosmik yoki tabiiy-diniy tajriba zonasi. Barcha o'yinchoqlar va qo'llanmalar bolaning o'zi ularni olib ketishi va joyida olib tashlanishi uchun mo'ljallangan. Ularning barchasi bir nusxada: birinchidan, bolalar agar bir nechta bo'lsa, muzokara qilishni va o'z navbatini kutishni o'rganadilar, ikkinchidan, ob'ektning avtodidaktikligi saqlanib qoladi, ya'ni mustaqil o'yin uchun moslashuvchanlik-hech kim aralashmaydi, maslahat bermaydi va tuzatmaydi.

1. Amaliy hayot zonasi: Yirik va kichik motorikani rivojlantirishga mo'ljallangan- yuvish uchun, tozalash uchun, artish va ovqat tayyorlash uchun anjomlar bilan jihozlangan





2. **Sensor rivojlanish zonasi:** Ta'm, hid, rang va shaklni o'rganish uchun predmetlar.




3. **Hisob-kitob va sanashga o'rganish, (Matematik zona)** miqdorni belgi-raqamlar bilan boglovchi eng sodda hisoblashga

o'rgatuvchi predmetlar.



4. Til zonasi: O'qishga tayorgarlik va yozishga o'rgatish uchun predmetlar.



5. Kosmik yoki tabiiy-ilmiy tajriba zonasi: Aqliy rivojlanish – atrof muhitni, tarix va madaniyatni bilishga yordam beruvchi predmetlar.

O'simliklarni mustaqil parvarish qilish uchun tuvakdagi gullar. Agar imkoni bo'lsa, bolalar parvarish qila oladigan hayvonlar.

Shuningdek jismoniy rivojlanish – muvozanat, diqqat, koordinatsiyani rivojlantirishga qaratilgan harakatli mashqlarni bajarish uchun polda gilamchalar va chiziqlar.

7-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasida Mariya Montessori metodikasidan foydalanishning o'ziga xosligi.

Mariya Montessori metodikasi bo'yicha mashqlar kundan-kunga ommabop bo'lib bormoqda. Chunki ushbu uslub vaqt o'tishi bilan o'zini oqladi. Ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarining Montessori muhitidagi rivojlanish natijalarini ko'rib, uning muhlisiga aylanishmoqda. Shubhasiz, mazkur uslubning asosiy jihati, ya'ni har bir bolaning yagonava takrorlanmasligiga bo'lgan ishonch, o'ziga hos rivojlanish rejasi, bolani o'rab turgan dunyoni organish usullari va muddati ham kishining e'tiborini o'ziga tortadi.

Bola uchun rivojlanish muhitini qanday tashkil etilishi kerak?

Umuman olganda, har bir ota — ona uyni "rivojlanish muhiti" qila oladi-bolaning oila hayotida to'liq ishtirok etishiga ruxsat berish kifoya: o'simlik va hayvonlarga gamxo'rlik qilish, tozalash, ta'mirlash, tikish. Agar u foydalanadigan narsalar o'yinchoq emas, balki haqiqiy bo'lsa, bolaning qo'li uchun qulay bo'lsa yaxshi bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bolalar ta'lim tarbiyasida Montessori metodikasining ahamiyati:

1. Qoidalar bo'yicha yashashni emas ularni yaratishni o'rganadi.
2. O'qishga qiziqishi ortadi, bolalar faqat qiziqqanlaridan o'qiydilar.
3. O'z faoliyatini mustaqil tashkil etish va rejalashtirishga o'rganadilar.
4. O'z qilmishlariga mas'ul va javob berishga o'rganadilar.
5. O'zaro yordamga o'rgatadi: Kattalar mas'uliyatliroq bo'ladilar, kichiklarda esa ishinch ortadi.
6. Savollarga mustaqil javob qidirishga o'rganadilar.
7. Atrof olam asoslari bilan tanishadilar.
8. Kuchli mantiq va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.
9. Bolada intellekt rivojlanadi.
10. Kichik motorika orqali nutq rivojlanadi.

Bu kabi hisslar bolaga keyinchalik hayotda juda qo'l keladi. Uning jamiyatga yahshi moslashishiga yordam beradi. Odatda Montessori metodikasi bo'yisha o'qigan bola hayotda omadli bo'ladi.

Montessori metodikasi bo'yicha quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- bolalarni bir-biri bilan solishtirish;
- bolalar o'rtasida bellashuv;
- bolani odatiy, umum qabul qilingan mezonlar bilan baholash;
- ragbat va jazoni qo'llash;
- majburlash;

O'z-o'zidan kelib chiqadiki, majburlash ta'qiqlanadi;

• har bir kichik odamcha hayotda kattalar bilan barobar harakat qilishga intiladi;

• faqat ta'lim va hayotiy tajribani qo'lga kiritishgina bunga imkon beradi;

• kattalar olamiga tezroq kirish uchun bolaning o'zi qiziqish bilan bilim oladi;

• kuzatuvchi va, lozim bo'lganda, yordamchi rolini bajargan holda pedagog neytral pozitsiyani egallaydi.

Bolalar quyidagilarni o'zlari tanlaydilar:

- Bilim olish tezligi va maromini;
- Darsning davomiyligini;
- O'quv materialini;
- o'zining rivojlanish yo'nalishini;

Shuning uchun pedagoglar asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishlari lozim:

- iloji boricha bolada mustaqillikni rivojlantirish;
- bola tanlovini hamisha hurmat qilishi;
- hissiy idrokni, ayniqsa, ushlab ko'rib sezishni rivojlantirish;
- qulay atrof-muhit yaratish;
- bolalarga sharoit (joy tanlash, mebelni ko'chirish, materialni

taxlash)ni ehtiyojiga qarab imkon berish;

- faqat xolis kuzatuvchi va yo'naltiruvchi bo'lishlari; □□ o'ziga o'xshash shaxslarni shakllantirmaslik;

- mustaqillikni qo'lga kiritish jarayonini tuzatmaslik.

Montessori sinflari va darslarining turlari

Montessori pedagogikasida eng asosiysi – tashkillashirilgan muhitda bola o'z shaxsini mustaqil rivojlantirishi.

Shu tamoyilga asoslangan ta'lim jarayonida bolalar o'z ehtiyojlarini namoyon etadilar, tarbiyachilar esa kuzatgan holda har bir bolaga kerakli individual yordam turini aniqlaydilar. Individual tartibdagi darslar juda ham qisqa (1-2 daqiqadan 5 daqiqagacha) ammo ular ancha unumli. Tarbiyachi bolani umuman to'g'rilashi kerak emas, u yodida titishi kerakki **“Mashgulotda tarbiyachi emas kuzatuvchi ekanini”**.

Individual shugullanishi uchun tarbiyachi quyidagi qoidalarni o'zlashtirishi kerak:

Birinchidan mashgulot uchun faqat 2 ta sifati bo'yicha keskin ajralib turuvchi predmetlarni olishi kerak. M: 2 ta slindrcha eng qalin yoki eng ingichka, 2 ta tayoq eng uzun yoki eng qisqa, 2ta rangli jadval qizil va ko'k va hk. Bir nechta emas, balki aynan 2ta predmetning olinishi bolaning diqqatini faqat berilgan sifatda jamlash uchundir. Montessorining aytishicha bolaning fikrlash maydonini cheklash kerak. 1ta emas 2ta keskin farqlanuvchi predmetlarning olinishiga sabab taqqoslash orqali sifat va so'zlar oson esda qoladi. Bu bilan bolaning ong maydonin chegaralash va unga kichik narsada diqqatni jamlash imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, tarbiyachi aniqlik va soddalikka amal qilishi kerak, ya'ni predmetlarni o'z nomi bilan atashi zarur.

Uchinchidan, u qisqa va kam so'zlarni ishlatishi, oddiy va tushunarli so'zlardan foydalanishi lozim.

Soat 12 atrofida pedagog ishni tugatishga ishora beradi; u hech

narsa demaydi, faqatgina doskaga “Narsalarni yigishtiringlar!” deb yozadi. Ba'zi bolalar ishni tugatib, narsalarni signaldan oldin yigishtirib bo'ladilar, boroq shunday bolalar borki, ishoradan keyin ham ishni uzoq vaqt davom ettiraveradilar. Sokin musiqa bilan tarbiyachi bolalarni jimlik mashgulotiga taklif etadi.

Montessori guruhlarida ikkita tarbiyachiga 30 nafardan ortiq bola bo'lishi mumkin emas.

Nazorat savollari:

1.Montessori o'yin honalari qanday zonalarga bo'linadi?

2. Amaliy hayot zonasi qanday didaktik materiallar bilan jihozlanishi lozim? 3. Kosmik yoki tabiiy-ilmiy zonasi qanday predmetlar bilan jihozlanadi?

4.Maktabgacha yo'shdagi bolalar ta'lim tarbiyasida Mariya Montessori metodikasidan foydalanishning o'ziga xosligi haqida so'z yuritish

5. Bola uchun rivojlanish muhitini qanday tashkil etilishi kerak?

6.Maktabgacha yoshdagi bolalar bolalar ta'lim-tarbiyasida Montessori metodikasining ahamiyati haqida ma'lumot bering

7. Montessori metodikasida pedagoglar asosiy e'tiborni nimalarga qaratishlari lozim?

8. Individual shugullanishi uchun tarbiyachi qanday qoidalarni o'zlashtirishi kerak?

8-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Montessori metodikasi mashgulotlari. “Tinchlik va hurmat” darslarini tashkil qilish

Montessori bogchalarida “Tinchlik va hurmat” darslari deyarli har kuni o'tkaziladi.

Har kuni soat 12 atrofida tarbiyachi bolalarga ishni tugatishga ishora beradi; u hech narsa demaydi, faqatgina doskaga “Narsalarni yigishtiringlar!” deb yozadi. Ba'zi bolalar ishni tugatib, narsalarni signaldan oldin yigishtirib bo'ladilar, boshqalar ishni tugatib,

yigishtiradilar. Shundan so'ng sokin musiqa bilan tarbiyachi bolalarni jimlik (dam olish) mashg'ulotiga taklif etadi. "Tinchlik va hurmat" darslarida birinchi navbatda har bir bola tinchlikni saqlay olishi, turib stol, stullar orasida ovoz chiqarmay harakatlanishi, tarbiyachi tomonidan ma'lum masofada past ovozda aytilgan ismini ilgab olishi muhimdir. Bolalar sokin musiqa sadosi ostida tinch otirib olishgach, tarbiyachi sekin turib, chetga o'tadi va past tovushda bolalarni birma-bir ismi bilan chaqiradi. Birma-bir chaqirilgan bolalar turib, tarbiyachi yoniga bora boshlaydilar. Bu yerda bolaning faqat o'ziga hosligi, o'zini tutishi ham aniq aks etadi. M: Biri ismini eshitib stulni itarib sakrab turadi va baland ovozda gapirib, kulib yugirib keladi. Ikkinchisi stol-stulga teginmasdan sekin turishga harakat qiladi va jihozlar orasidan sekin o'tib, jimlikni saqlaydi. Uchinchisi birdaniga sakrab turadi va o'zini ushlab olishga harakat qilib tohtab qoladi, butun kuchi bilan bo'ysunmaydigan muskullarini jilovlashga harakat qiladi va nihoyat galaba qozongach yuzida hursandlik ifodalanadi. Mashg'ulotlarda to'liq jimjitlik ta'minlanib, dam olgan bolalarning asab eshitish yo'llari o'tkirlashadi, tez-tez takrorlanadigan mashqlarda esa eshitish qobiliyati kuchayadi. Jimlik mashg'uloti bolaning irodasini tarbiyalash borasida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'pgina bolalarda bu mashqlar ta'sirida jimlikni saqlash odat bo'lib qoladi. Tinib-tinchimaslik, shovqin-suron ovozlari bolalarga hos, degan fikrlar mavjud. Agar kichkina bolalarni uzoq vaqt davomida ular uchun qulay muhitda kuzatsak, biz bu fikrning hato ekanini ko'ramiz. Bolalar yonidagi kattalar haddan tashqari ko'p gapirganlari uchun ko'p gapiradilar, huddi shu sababli baqiradilar. Odatda kattalar bolalar bilan ancha baland ovozda gaplashadilar. Jimlik darsi iroda va diqqatni mashq qildirib, bolalarga jimlikni hurmat qilishni, hayotning nafaqat tashqi hodisalariga nisbatan, balki ichki harakatlarda ham diqqatni to'plashga o'rgatib boradi.

Quyida uyda o'tkaziladigan "Tinchlik va hurmat" darsiga misol keltiramiz:

E'tibor va sabrni rivojlantirish:

Yoshi: 2 yosh mashg'ulotni bola ixtiyoriy ravishda bajarishi kerak va u qanchalik sabr qilsa shuncha bajarishi kerak.

Sizga kerak bo'ladi: bolangiz va siz honada yolgiz bo'lasiz.

Qanday o'ynash kerak:

Biz bolani sukut saqlashga, sukunatni tinglashini taklif qilamiz va siz (taxminan bir daqiqadan so'ng) belgi berganingizda, u eshitgan narsalarini aytib berishi lozim. M: soatning qanday chiqqilashini, yomgir tomchilashini, derazadan qanday tovushlarni eshitishini, quyosh nurlari tushayotgan joyini ko'rsatishini aytib.

Qizigi shundaki, Mariya Montessori metodikasi aqlan zaif bolalar uchun mo'ljallangan. Biroq metodika soglom bolalarda juda samarali bo'ldi va butun dunyoda qo'llanila boshlandi. Montessori texnikasi 100 yildan ko'proq vaqtni tashkil etdi, ammo u hali ham inqilobiy hisoblanadi, birinchi navbatda, bu darslar oddiy darslarga o'xshamaydi. O'qituvchi bolaga misollarni ko'rsatadi, maxsus materiallar beradi va uni mustaqil ravishda o'rganadi. Montessori tizimidagi maktablarda yozuvchi Gabriel Garsia Marquez, aktyor Jorj Klooney, Vikipediya asoschisi Jimmi Uels, AQShning birinchi xonimi Jaklin Kennedi, Google asoschilari Sergey Brin va Leary Page, ingliz knyazlari Charlz, Uilyam va Garri.

Har bir narsa bolaning o'z-o'ziga xizmat qilish qobiliyatini erta o'rganish bilan boshlanadi va faqat bola ularni egallaganidan so'ng, u yanada murakkab vazifalarga ishonadi.

Bolani Montessori tizimida o'qitishdan oldin, ushbu texnikaning asosiy qoidalarini o'rganish muhimdir.

1-qoida Barcha topshiriqlarni o'zimiz ko'rsatib sekin tushuntirib beramiz. Bolani shoshtirmaslik va kamsitmaslik muhimdir.

2- qoida Bolaga erkinlik bering, o'zi mustaqil bajara oladigan ishni siz bajarmang. Bola iltimos qilgandagina unga yordam berish mumkin.

3- qoida Agar bola ishni qayta va qayta bajarayotgan bo'lsa sabr bilan uni kuzatamiz.

4- qoida Bolaga doimiy topshiriqlar berib boring: masalan, har kuni gullarni sugorish, nonushtadan keyin stolni artish.

5- qoida Bolani maqtashni unutmang: "Sen buni juda yaxshi uddalayapsan!", "Sen kap- katta bo'lib qolibsanku!". "Bugun kechagidan yahshiroq bajarding!".

Nazorat savollari:

1. Montessori bogchalarida "Tinchlik va hurmat" darslarini o'tkazishdan maqsad nima?

2. "Tinchlik va hurmat" darslarini o'tkazishda tarbiyachi nimalarga ahamiyat berishi lozim?

3. Bolani Montessori tizimida o'qitishdan oldin, ushbu texnikaning qanday qoidalarini o'rganish muhim?

9-Mavzu: Montessori metodikasi va oila

Bolaning Montessori metodikasiga tez va oson moslashishlari uchun bu tizimni oilada ham tushunib to'g'ri qabul qilish lozim.

Agar ota-onalar metodikani rad etishsa pedagoglarning harakatlari zoe ketadi bola esa doimiy o'zini noqulay xis etadi. Oila o'z bolasini Montessori muhitida rivojlanishiga yordam berishi kerak. Oilada bolaning to'g'ri rivojlanishi uchun kichik yordamchi muhit hosil qilish lozim. Bu bolalarga maktabdagi ta'lim bilan uydagi kundalik hayotni psixologik boglashga yordam beradi.

Montessori fikri bo'yicha bolalar va kattalar o'rtasida o'zaro teng huquqlilik bo'lishi kerak. Shuning uchun kattalar o'z farzandlariga Montessori falsafasiga ko'ra munosabatda bo'lishlari lozim.

Ota-onalarga ba'zi-ba'zida Montessorining 19 ta haqiqatini o'qib chiqishlari zarar qilmaydi.

1. Bolalarni o'rab turgan muhit tarbiyalaydi.

2. Agar bolalar tez-tez tanqid qilinsa ular qoralashga

tanqid qilishga o'rganadilar.

3. Agar bolalarni tez-tez maqtab turilsa ular baholashga o'rganadilar.

4. Agar bolani tez-tez ma'qullab tursangiz ular o'ziga yaxshi munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

5. Agar bolavlariga adovat bilan munosabatda bo'lsangiz ular urushqoq bo'lib tarbiyalanadilar.

6. Agar bolalarga to'g'rilik namoyish etilsa ular adolatga o'rganadilar.

7. Agar bolalarni mayna qilsangiz ular tortinchoq, jur'atsiz va xadiksiraydigan bo'lib tarbiyalanadilar.

8. Agar bolalar himoyalanganlik xissi bilan yashasalar ular ishonishga o'rganadilar.

9. Agar bolani tez-tez hijolatli xolatga qo'ysangiz u aybdorlik xissi bilan yashaydi.

10. Agar bolaga doimo ko'ngilchanlik qilsangiz u toqatsizlikka o'rganadi. 11. Agar bolani qo'llab quvvatlab tursangiz uning o'ziga ishonchi ortadi.

12. Agar bolalar do'stona muhitda yashasalar va o'zlarini kerakli deb bilsalar ular bu dunyoda mehr-muhabbat topishga o'rganadilar.

13. Bola oldida ham u yo'qligida ham u to'g'risida yomon gapirmang.

14. E'tiborni boladagi yaxshi xislatlarni rivojlantirishga qaratib, shunda bola tabiatida yomon xislatlarga o'rin qolmaydi.

15. Sizga murojaat qilayotgan bolani doim eshiting va javob bering. 16. Xato qilib uni tuzatmoqchi bo'lgan bolani hurmat qiling.

17. Izlanishda bo'lgan bola uchun yordamga tayyor turing, barchasini topgan bolaga halaqit bermang.

18. Bola egallamagan narsasini egallashiga yordam bering.

Bunda bolani o'rab turgan muhit mehrga, e'tiborga va tinchlikka to'la bo'lsin.

19. Bola bilan muloqotda yaxshi xulq namoyish eting. Shunda sizning farzandingiz har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetadi.

Montessori metodikasida ustozning asosiy vazifasi kuzatuvdan iborat ekani esingizdan chiqmasin. Agar farzandingiz ishni eplolmayotgan bo'lsa, albatta birinchi qiladigan ishingiz "Kel qanday to'g'ri bo'lishini ko'rsataman", deb aralashishga harakat qilasiz. Sabr qiling, bola mashg'ulotni ohiriga yetkazsin. Chunki Montessori metodikasining asosiy shiori "O'zim bajarishimga yordam ber!". iborasidan iborat.

- Ish uchun u yoki bu materialni tanlashni, mashg'ulotlarning davomiyligini, ularni istalgancha takrorlashni va ishni istagan paytda tugatishni bolaning o'ziga qo'yib bering. Biroq bolada o'zini intizomga bo'ysundirish ko'nikmasini ishlab chiqish uchun unga materialni joyiga olib borib qo'yishdan oldin mashg'ulotni tugatish lozimligini tushuntirish kerak.

- Biz uy mashg'ulotlarini kundalik odatiy ishga aylantirishni maslahat bermaymiz! Agar sizning farzandingizning kayfiyati bo'lmasa, mashg'ulotlarni keyingi kunga qoldirgan ma'qul. Chunki mashg'ulotlar vaqti- bu farzandingiz bilan yolgiz qoladigan va ikkalangiz ham o'zaro muloqotdan lazzatlanadigan payt!

Quyida uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga misollar keltiramiz:

Amaliy hayot

Erta yoshidanoq bola biz amaliy hayot deb ataydigan barcha ishlarda kattalarga yordam berishga intiladi. Uning kichik motorikasi yetarlicha rivojlanganda, u kundalik ish bilan shugullanishi mumkin. Bolani qo'llari bilan ko'p ishlashga majbur qiladigan mashqlar uning miyasi umumiy muvozanati rivojlanishiga yordam beradi.¹⁸ Amaliy hayot mashg'ulotlari har qanday yoshda foydalidir, chunki u bolada qiziqish doirasini kengaytirishga va keying o'rganish uchun zarur

bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu mashqlar diqqatni jamlashda, mustaqillikni rivojlantirishda, tartiblilik hissi, o'ziga ishonch va boshqalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bola baxtli bo'lishi uchun o'zini mustaqil his qilishi kerak.

Guruchni idishga solish (2,5 yoshdan 5 yoshgacha)

Mashg'ulotning maqsadi: muskullar koordinasiyasini rivojlantirish, guruchni ko'zadan kosaga to'kmasdan solish, 1. o'z kuchiga bo'lgan ishonchga ega bo'lish. Zarur bo'ladigan narsalar: kichkina patnis, kosa va yarmigacha guruch solingan ko'zacha, stolni artish uchun latta.

Taqdimot: stol ustida turgan barcha predmetlarni ko'rsating, ularni nomma-nom aytib chiqing va ular bilan bajariladigan harakatlarni tushuntiring ("kosa", "ko'za" va hokazo); bir qo'lingiz bilan ko'zani, ikkinchisi bilan kosani oling; ko'zani kosa ustiga olib kelib, unga guruchni soling; endi farzandingizning o'zi ishlasin. Bolangiz guruch solishni mukammal o'rganganidan keyin suyuqliklarga o'tish mumkin, ya'ni bola o'ziga ko'zadan stakanga sut yoki sharbat solishiga ruxsat bering.

"O'lchami to'g'ri keladigan qopqoqni top" (2 dan 4 yoshgacha)

Mashg'ulotning maqsadi: ko'rish va harakatlanish koordinasiyasini rivojlantirish. Zarur bo'ladigan narsalar: qopqoqli 4-6 ta shisha idishcha yoki turli o'lchamdagi bankacha (qopqoqlarni kichik konteynerda saqlash mumkin).

Taqdimot: shisha idishchalarni stol ustiga qo'ying; sekin qopqoqlarini echib olib, yana yopib qo'ying; oldiniga shisha idish o'lchamiga mos keladigan qopqoqlarni yoping, keyin qopqoqlarni aralashtirib, bolaga kerakli qopqoqni o'zi topishiga imkon bering.

O'z-o'ziga xizmat: poyabzallarni tozalang 2,5 yoshdan 6 yoshgacha

Mashg'ulot bolani kundalik ko'nikmalarga o'rgatadi, unga diqqatni jamlashni o'rgatadi.

Sizga kerak bo'ladi: ona va bola uchun fartuk, gazeta, bolalar

poyafzallari va savat (yoki quti), unda siz poyafzal cho'tkasi, mato, gubka qo'shasiz

Qanday o'ynaymiz: fartukni taqamiz, gazetani erga yoying, poyafzallarni qo'ying. Savatdagi narsalarni siz ularni ishlatadigan tartibda joylashtiring.

- Biz poyabzalni qo'llarimizga olamiz, gazetaga qo'yamiz, "endi poyabzalni qanday tozalash kerakligini ko'rsataman", deysiz. Bolaga cho'tkadan foydalanib, poyafzalni qanday qilib to'g'ri tozalash kerakligini ko'rsatib beramiz, keyin uni mato va gubka bilan artib oling.

- Endi bolaga ikkita poyafzalni bir-biri bilan taqqoslashni so'raymiz va ikkinchi poyafzalni o'zi tozalashini taklif qilamiz.

- Mashgulot so'ngida gazetani tashlaymiz, fartuklarni echamiz, narsalarni savatga solamiz va eshik oldiga qo'yamiz. Bolaga bu uning savatchasi ekanligini va har kuni kechqurun poyabzallarni tozalash kerakligini aytamiz.

Oshxonada yordam:

Yoshi: 2,5 yoshdan 5 yoshgacha. Bolalar oshxonada yordam berishni yaxshi ko'radilar. Yosh yordamchining faoliyatini foydali va qiziqarli qilish imkoniyatini toping.

Sizga kerak bo'ladi:

Don (guruch, grechka, inju arpa va boshqalar), 2 chuqur kosa, qoshiq.

Qanday o'ynaymiz:

Patnisga chapda- kosada guruch, o'ngda-bo'sh kosa qo'yiladi. Bolaga qoshiqda guruchni qanday qilib olish kerakligini ko'rsatib, guruchni qoshiqdan boshqa kosaga soling. Keyin bolaning qo'lini harakatga keltirib, jarayonni takrorlang. Kosada ozgina guruch bo'lsa, kosani qanday qilib to'ldirish kerakligini bolaga ko'rsatib bering.

Suv bilan o'yinlar: Yoshi: 2 yosh

Bolalar odatda suv bilan o'ynashni yaxshi ko'radilar. Suv bir stakandan ikkinchisiga quyilishi yoli suv bilan tajribalar o'tkazishni o'rgatadi.

Sizga kerak bo'ladi: chuqur piyola, shampun, ona va chaqaloq uchun ikkita naycha.



Qanday o'ynash kerak:

Biz bolani bir piyola suvga bir oz shampun quyishni taklif qilamiz, ko'pikni qanday urishni ko'rsatamiz va bolani bu manipulyatsiyani takrorlashga taklif qilamiz. Keyin biz naychani olib, unga zarba beramiz- idishda pufakchalar paydo bo'ladi. Biz bolaga jarayonni tushuntiramiz va uni naychaga qanday zarba berishini kuzatamiz, bu darhol ishlamasligi mumkin.

Sezgi idrokni rivojlantirish

Montessori pedagogikasida beshta sezgi a'zosining rivojlanishiga alohida e'tibor beriladi: Maxsus didaktik vositalar bilan shugullanib, bola asta-sekinlik bilan ranglarni, hajmni, shakllarni, vaznihiidlar, shovqin va boshqalarni tanishni o'rganadi.¹⁹ Bola sezgi a'zolari yordamida atrofdagi olamni kashf etadi; Ular qanchalik yahshi rivojlangan bo'lsa u biz yashayotgan dunyoni shunchalik sergaklik bilan anglaydi. Voyaga yetgan davrda hissiyotlarni rivojlantirish juda qiyin kichadi, bolani shakllantirish paytida biz uning dunyoni sergaklik bilan his qilishini istasak, buni iloji boricha ertaroq boshlagan ma'qul.

Sezgilarni rivojlantirish uchun siz atrofingizdagi barcha narsalardan foydalanishingiz mumkin. Sezgi idrok va hisslarning rivojlanishi bolaga o'qishni o'rganishiga yordam beradi: o'qish uchun u tovishlarni eshitishi va ularni farqlashi kerak. Yahshi rivojlangan eshitish qobiliyatiga ega bola tovushlarni osongina idrok qiladi, yahshi ko'rish hotirasi esa unga harflarni tezroq yodlashga yordam beradi.

Mato namunalari solingan quticha (2,5 dan 5 yoshgacha)

Mashgulotning maqsadi: qo'l bilan sezish hissini rivojlantirish. Zarur bo'ladigan narsalar: turli teksturadagi 2 tadan mato parchasi solingan kichkina quticha (masalan, ipak, paxta, jun, moxer matolar).

Taqdimot: farzandingizga teksturasi bo'yicha bir biridan farq qiluvchi uchta juft mato parchasini ko'rsating; keyin ularni aralashtirib, boladan mato parchalarining juftini qo'l bilan ushlab topishini so'rang; bolangiz mashgulotning ma'nosini tushunganidan keyin boshqa mato parchalarini qo'shing; farzandingizni ko'zlari boglangan holda shu ishini yana takrorlashga ilhomlantiring.

"Sehrli xaltacha" (3 dan 5 yoshgacha)

Mashgulotning maqsadi: turli shakldagi predmetlar bilan tanishish, qo'l bilan sezish hissini rivojlantirish. Zarur bo'ladigan narsalar: bolaga tanish 8-10 ta predmet solingan xaltacha (masalan, taroq, hushtak, o'yinchoq va hokazolar).

Taqdimot: farzandingizning ko'zlarini boylang yoki undan ko'zini yumishni so'rang; keyin u xaltachadan biror predmetni olsin va uni qo'li bilan ushlab nimaligini topishga harakat qilsin; bola barcha narsalarni aniqlay olganidan keyin ularni boshqalariga almashtirish mumkin. Bunda bolaning yoshiga qarab asta-sekin mashqni qiyinroq qilsa bo'ladi. Ushbu mashqni bitta harfdan boshlanadigan predmetlar bilan ham o'tkazish mumkin (masalan agar siz "r" harfini o'rgatgan bo'lsangiz, xaltachaga ruchka, ro'molcha va hokazolarni soling). Albatta, bu farzandingiz bilan Montessori metodikasi bo'yicha o'tkazishingiz mumkin bo'lgan mashgulotlarning hammasi emas. Muhimi sizda bolangizga vaqt ajratish va u bilan birgalikda ijod

qilishdan lazzatlanish istagi mavjud bo'lsa bas!

Matematika

Matematikani o'rganishga qiziqish davri kelgani odatda darrov bilinadi. Bu paytga kelib bola turli buyumlarni sanab yuradi, u yoki bu raqamlar nimani anglatishini so'raydi. Matematikani aniq misollar bilan o'rgatish kerak va iloji boricha kamroq gapirish lozim.²⁰ Bunda biz yana buyumlardan foydalanamiz, chunki bola hali mavhum fikrlay olmaydi. Sekin-astalik bilan mashgulotlar davomida bola konkret fikrlashdan mavhum fikrlashga o'tib boradi. Bitta mashgulot faqat bitta qiyin elementni o'z ichiga olishi kerak, bola bir mashqni o'zlashtirgandan so'ngina keying mashqqa o'tishingiz mumkin.

Raqamlar va jetonlar:

Materiallar:

* 1 ta quti

* qizil rangli shakllardagi 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar (10 bu 1 va 0)

* qizil rangli plastik jetonlar (55ta)

Taqdimot

1. Bolaga 1 dan 10 gacha raqamlarni chapdan o'nga gorizontaal ravishda joylashtirishni taklif qiling

2. 1 raqamini ko'rsating va uni ostiga 1 ta jetonni qo'ying. Keyin 2 raqamini ko'rsating va uni ostiga gorizontaal tarzda 2 ta jetonni qo'ying, ular orasida kichik masofa qoldiring. Keyin 3 raqamini ko'rsating va uni ostiga 3 ta jetonni qo'ying, bunda dastlabki 2 ta jeton bilan 3chi jeton orasida bo'sh joy qolishi kerak.

3. 4 raqami uchun 2 ta jetonni yonma-yon qo'ying, keying ikkitasini esa aynanularni ng tagiga qo'ying. 5 raqami uchun 4 raqamidek amallarni takrorlang va beshinchi jetonni yuqorigi ikkita jeton orasidagi bo'sh joyni tagiga qo'ying. Bolaga 10 gacha bo'lgan raqamlar uchun jetonlarni joylashtirishni davom ettirishni taklif qiling.

4. 1-bosqich: Bugun seni juft va toq sonlar bilan

tanishtiraman. barmogingiz bilan ma'lum miqdordagi jetonlarni "juft son", "toq son" degan holda ko'rsatib boring.

5. 2-bosqich: boladan avval juft son keyin toq sonni ko'rsatishini so'rang. Ushbu amalni bir necha marta takrorlang.

6. 3-bosqich: bolaga raqamni ko'rsating va undan bu qayni ekanligini so'rang. Unga keying keying raqamni ko'rsating va shu savolni bering. Mashqni bir necha marta takrorlang.

7. Xulosa o'rinda bolaga: "Bugun sen 1,3,5,7 va 9 toq sonlar, va 2,4,6,8,10 esa juft sonlar ekanligini bilib olding", deb ayting.

Nutq

6 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqni rivojlantirishga juda uquvlidirlar- ular so'z boyligini oshirib borishadi, sintaksis asoslari bilan tanishadi va o'quv ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Bola nimani hiss qilayotgani va nima hohlashini yahshiroq tushuntirish uchun so'z boyligini rivojlantirish juda muhimdir, bunda bolaning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va kayfiyati chog bo'ladi. Amaliy hayot va sezgi idrokni rivojlantirish mashg'ulotlari bolaning so'z boyligini oshirishiga imkon beradi. Bu unga atrofdagi dunyoni yahshiroq bilish va to'g'ri so'zni topishda yordam beradigan "Madaniyat" mavzusidagi mashqlarga va kattalar o'z fikrlarini aniq-tiniq ifoda etadigan matematikaga ham tegishli.

Bir-birini to'ldiruvchi kartalar

Materiallar

*1 ta patnis

*Bir-birini to'ldiruvchi jufti bor kartalar (boshlanishiga 6 juft) masalan: chelak va belkurak, ilgak va ilmoq, mo'y qalam va bo'yoq idishchasi.

Taqdimot

1. Bolaga mashqni kattalar bilan birgalikda bajarishni taklif qiling.
2. Bola bilan gilamchaga yonma-yon o'tiring.
3. Barcha rasmlı kartalarnı gilamchaga chapdan o'nga qarab

Joylashtirish

4. Kartani oling va rasmda nima tasvirlanganini ayting

5. Boladan birinchi kartadagi rasmni to'ldiradigan rasmlı kartani tanlashini so'rang (masalan mo'yqalam va bo'yoq idishchasi)

6. Keyingi kartani oling, unda nima tasvirlanganini ayting va boladan mashqni davom ettirishini so'rang.

Rasmlı ta'rıflash

Materiallar

Muhokama uchun bitta kitob, rasmlar yoki boshqa istalgan buyum.

Taqdimot

1. Bolalarga har qanday kitob ichidan rasm ko'rsating va navbati bilan nimani ko'rganliklarini so'rang

2. Kattalar uchun ularning har biri rasm haqida qanday fikrda ekanligini bilish juda muhim ekanligini bolalarga tushuntiring

GLOSSARIY

Tizim (qad.yunon.: "tseloe, sostavlennoe iz chastey; soedinenie") — bir-biri bilan bog'liq holda ma'lum yahlitlikni, butunlikni tashkil etuvchi elementlar yig'indisi.

Metod (yun. metodos — bilishyokitadqiqoty'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'lyo'riklar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Didaktika (yun. didaktikos — o'rga-tuvchi, ta'limberuvchi) — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi.

Didaktik adabiyot — badiiy ifodalangan pand-nasihat tarzidagi adabiyot. Bunda axloqiy ta'limiy, ilmiy falsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi.

G'oya — inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o'zgartirish maqsadlariga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'ladi.

Innovatsiya (ing .innovationas — kiritilganyangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

Individuum, individ (lot. individuum — bo'linmaydigan) — 1) alohida, mustaqil holda mavjud bo'lgan organizm; 2) alohida odam, shaxs.

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy axloqiy olam. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs

bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Ilmiy tadqiqot — yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'yektivlik, ishonchlilik, aniklikxos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlash ilozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan boglangan tajriba va nazariyadan iborat.

Axloq — kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlaridan namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqliravishda axloq talablarini bajarish-bajarmastlik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi.

Hissiyot — shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilargahamdao'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar dan kelib chiqadigan kechinmalari.

Ijtimoiylashuv — individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi.

Motorika — organizm yoki alohida organlarning harakat faolligi. Motorika. deganda ma'lum vazifani amalga oshirish uchun kerakli harakatlar ketma-ketligi majmuasi tushuniladi.

Sensorika — bola aqliy rivojida sezgi orqali idrok qilishda barcha analizatorlar ishtiroki.

Spontanlik — o'z istagicha ixtiyoriga ko'ra harakat qilish, o'z-o'zicha tashabbus ko'rsatish

Ijtimoiy tarbiya — shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bulgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarni shakllantirish jarayoni.

Ijtimoiy tarbiyada yoshga kura yondashuv — inson rivojlanishiga har bir yosh guruhning xususiyatlari va imkoniyatlarini

inobatga olgan holda shart-sharoit yaratib berish.

O'zaro munosabatlar — jamoada ijtimoiy-psixologik iklimni shakllantirish asosi.

O'z-o'zini anglash -inson ongining eng oliy irodasi bulib, o'zi haqidagi tasavvurlar — xulq-atvori, faoliyati, exgiyojlarini anglashda namoyon bula-di.

O'z-o'zini tarbiyalash — insonning uzida ijobiy xislatlarni shakllan-tirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashti-rilgan faoliyati.

O'z-o'zini faollashtirish — insonning uz shaxsiy mkoniyatlarini to'liq aniqlashga va rivojlantirishga qaratilgan doimiy intilishi.

Empatiya — dunyoga boshqalar nazari bilan qarash, uni boshqalar kabi tushunish, boshqalarning xatti-harakatlarini ularning nuqtai nazariga ko'ra qabul qilish va shu bilan birga o'zining tushunchasini bildirishga qodirlik.

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SH.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" "O'zbekiston" nashriyoti 2022 yil
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida". T.: 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori. 2016 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261sonli qarori. 2017 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi «No-davlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3276-sonli Qarori.
7. T.C.Волосовец,В.А.Маркова, С.А.Аверина STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М.БИННОМ...Лаборатория знаний 2019.
8. Евдокимова Е.С. Технология проектирования в ДОУ Е.С.Евдокимова. – М.: ТЦ Сфера, 2016
9. Midrack, Lin. "STEM ta'limi bolangiz uchun to'g'rimi?" Lifewire, 2018 yil. 10.STEAM ta'limi nima? Nega STEM san'at va gumanitar fanlarni o'z ichiga olishi kerak. Portlend, 2018 yil 13 –dekabr.
11. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (STEAM ta'lim texnologiyasi asosida) T-2021 yil 38-bet.
12. Мария Монтессори. Помоги мне это сделать самому ISBN: 978-5-8403-0100-5 Год издания: 2007 Издательство:

Карапуз-дидактика Язык: Русский

13. Мария Монтессори. Дети - другие ISBN: 978-5-9715-0448-1 Год издания: 2012 Издательство: Карапуз

14. Мария Монтессори. Мой метод: начальное обучение. ISBN: 978-5-17-029515-9 Год издания: 2017 Издательство: АСТ

15. Мария Монтессори Впитывающий разум ребенка. ISBN: 978-5-903884-08-7 Год издания: 2011 Издательство: Благотворительный фонд "Волонтеры"

16. Мария Монтессори. Полный курс воспитания. Мария Монтессори. ISBN: 978-5-17-100314-2 Год издания: 2019 Издательство: АСТ

17. Мария Монтессори. Математика по методу Монтессори для детей 5-8 лет. ISBN: 978-5-99045-591-7 Год издания: 2020

18. Фаусек Юлия Ивановна Юлия Фаусек: Детский сад Монтессори. Редактор: Савушкин С. Н. Издательство: Карапуз, 2011 г

19. Юлия Фаусек. Педагогика Марии Монтессори. Статьи, дневники, рукописи. Автор: Фаусек Юлия Ивановна Издательство: Генезис, 2007

20. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent -2022 y

21. Z.S.Teshabayeva Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish o'quv qo'llanma "Innovasion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" 2021 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: www.edu.uz. 2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz.

3. Respublika bolalar kutubxonasi: www.kitob.uz 4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: www.ziyonet.uz

Teshabayeva Zamira Sobirovna

«MARIYA MONTESSORI METODIKASI»

**Fanidan
O'quv qo'llanma**

Ta'lim yo'nalishi: 60110200 - Maktabgacha ta'lim

Muharrir:
Tehnik muharrir:
Musahhih:
Sahifalovchi:

X. Taxirov
S. Melikuziva
M. Yunusova
A. Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 2023 й

Blehim 60x84¹/₁₆ "Cambria" garnituras, kegli 5,75.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 5. Adadi 92
dona. Buyurtma № 1655632

**Nazokathon ziyo print MCHJda chop
etildi.**

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

